“Uglevodlar hazmlanishi og‘iz bo‘shlig‘ida so‘lak tarkibidagi amilaza va maltaza fermentlari ta’sirida boshlanib, asosiy hazmlanish o‘n ikki barmoqli ichak va ingichka ichakning boshlang‘ich qismida (pH 8-9) boradi. Oshqozonda uglevodlarning parchalovchi fermentlar yo‘q. Uglevodlarning hazmlanishini ta’minlaydigan amilaza, saxaroza, maltaza, laktaza, amilo-1,6-glyukozidaza fermentlari oshqozon osti bezi va ingichka ichak shilliq qavatida ishlanib chiqadi. Kletchatka (oshqozon-ichak traktida) hazmlanmaydi va najasni hosil bo‘lishini ta’minlaydi. Monosaxaridlar (asosan glyukozaga aylangan holatda) ingichka ichak epiteliysidagi mikrovorsinkalar orqali ATF sarflanishi bilan (konsentratsiya gradiyentiga qarshi) so‘rilib qonga o‘tadi. (Ovqat bilan uglevodlar oshiqcha miqdorda iste’mol qilinganda, oz miqdorda saxaroza, laktozalar ham so‘rilishi mumkin. Ammo ular organizmda foydalanilmaydi, siydik orqali chiqarilib yuboriladi). Qon bilan glyukoza jigarga boradi va uning ma’lum miqdori glikogenga aylanadi, asosiy miqdori esa qon bilan hamma to‘qima hujayralariga yetkaziladi. Ichakda disaxaridlar asosan quyidagicha parchalanadi:

Laktoza- 1mol glukoza va 1 mol galaktozaga (laktaza fermenti ta’sirida)

Saxaroza-1 mol glukoza va 1 mol fruktozaga (saxaraza fermenti ta’sirida)

Maltoza- 2 mol glukozaga (maltaza fermenti ta’sirida)

Izomaltoza- 2 mol glukozaga (izomaltaza fermenti ta’sirida) parchalanadi. So‘ngra qonga so‘rilgan monosaxaridlar hujayrada yana parchalanishda davom etadi. Hujayraga monosaxaridlarning kirib olishi ham o‘ziga xos, ya’ni glukozaning qondan hujayraga o‘tishida insulin ishtirok etsa, fruktoza va galaktozaning hujayraga kirishi jigar fermentlari ta’sirida boradi. Fruktozaning hujayraga kirishida fruktoza-1-fosfataldolaza, galaktozaning hujayraga kirishida esa galaktoza-1-fosfaturidiltransferaza fermenti ishtirok etadi.” [1]

Matnni talabalarga berilgandan so‘ng ma’lumotlarni terib olinadi va matnga doir savol tarzidagi jadval beriladi.

ISSN 3030-3907

Boomerang jadvali

	Krax-mal	**Mal-toza**	**Lak-toza**	**Izomal-toza**	**Gluko-za**	**Galak-toza**	**Fruk-toza**
Og‘iz bo‘shlig‘ida α-amilaza ta’sirida dekstringacha parchalanadi							
Maltaza ta’sirida parchalanadi							
Saxaraza ta’sirida parchalanadi							
Laktaza ta’sirida parchalanadi							
Hujayra ichiga insulin ta’sirida kiradi							
Fosfataldolaza ta’sirida hujayraga kiradi							
Fosfaturidiltransfe-raza ta’sirida hujayraga kiradi.							
Hujayrada 3 xil usulda parchalanadi							
Ichakda pankreatik amilaza ta’sirida parchalanadi							
Parchalanib glukoza va galaktoza hosil qiladi							
Parchalanib glukoza va fruktoza hosil qiladi							
Izomaltaza ta’sirida parchalanadi							

ISSN 3030-3907

Boomerang jadvali so‘ngra talabalarga tarqatiladi va 1-2 daqiqa davomida vazifani o‘qib bajarishlari vazifa qilib beriladi. So‘ngra o‘qituvchi tomonidan javoblar tekshirilib, javoblar tahlil qilinadi. Shu tariqa ham o‘tilgan mavzu tushuntiriladi va mustahkamlanadi. Interfaol metodlar an`anaviy metodlardan ancha samarali hisoblanadi. An’anaviy takrorlash jarayonida o‘qituvchi ko‘proq ma’lumot beruvchi rolini bajarsa, interfaol metodlarda o‘quvchilar faol fikrlaydi, savollarga javob beradi, muhokama qiladi va o‘z fikrlarini erkin bayon etadi. Bu esa bilimlarning yanada mustahkam o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Baho darajalari	guruh	Talaba soni	Nazorat guruh		Tajriba guruh	
			Soni	%	Soni	%
A`lo Yaxshi Qoniqarli		24	3 14 7	12,5 58,3 29,2	5 15 4	20,8 62,5 16,7

XULOSA. Bugungi kunda zamonaviy ta’lim o‘qituvchidan doimo izlanishni talab qilsa, ta’lim oluvchidan esa mustaqil izlangan holda kreativ yondashishni taqozo qilyapti. Shunday ekan yuksak taraqqiy etayotgan bir davrda kreativlik eng zarur omillardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, interfaol metodlardan foydalanish darsni takrorlash jarayonini samarali tashkil etishga, o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga, mustaqil fikrlashini rivojlantirishga hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimida darsni takrorlash bosqichida interfaol metodlardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.A. Sobirova, O.A. Abrorov F.X. Inoyatova, A.N.Aripov Biologik kimyo. Toshkent 2006 y
2. G.A.Ixtiyarova, D.J. Bekchanov, M.Sh.Ahadov. Kimyoni o`qitishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati. ( O`quv qo`llanma) Toshkent 2020 (109-111 betlar)
3. Sh.I.Murodova. “The Importance of Problem-Based Learning in Teaching Medical Chemistry” International Journal of Pediatrics and Genetics Vol. 3 No. 11 (2025) ISSN: 2995-5483
4. R.Mavlonova, D.Abdurahimova pedagogik mahorat (o‘quv qo‘llanma) –

ISSN 3030-3907

5. T ., «Fan va texnologiya», 2009, 176 bet.
6. B. L.Faberman va boshqalar. Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari- T. 2002 7. A.Efimova. pedagoglik kasbi- T. 2002
7. R.Mavlonova, D.Abdurahimova pedagogik mahorat (o‘quv qo‘llanma) -T., «Fan va texnologiya», 2009,

ISSN 3030-3907

KOINOT TASVIRLARIDAN GAZ INDIKATORLARI VA METEOROLOGIK PARAMETRLARINI INTEGRATSIYASI ASOSIDA PM2.5 KONSENTRATSIYASINI ANIQLASH TADQIQOTLARI

Djumanov Jamoljon Xidaykulovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Irmuxamedova Navruza Abdullajonovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Mirzag‘aniyev Sardor Ilyosjon o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Odilov Abdullojon Komiljon o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada atmosferadagi PM2.5 konsentratsiyasini aniqlashning takomillashtirilgan algoritmi ishlab chiqilishi va uning amaliy samaradorligi yoritilgan. Tadqiqotda MODIS va VIIRS platformalaridan olingan aerosolni optik yutilish chuqurligi ma’lumotlari, Sentinel-5P asosidagi NO_2, SO_2 va CO gaz indikatorlari, shuningdek meteorologik parametrlar hamda yer usti monitoring kuzatuvlari integratsiyalandi. Koinotdan olingan tasvirlar ma’lumotlariga oldindan ishlov berish, fazoviy-vaqt bo‘yicha moslashtirish va matematik-statistik modellashtirish asosida PM2.5 ni baholash geoaxborot modeli taklif etilgan. Olingan natijalar takomillashtirilgan algoritm klassik AOD–PM2.5 modeliga nisbatan yuqori aniqlik ko‘rsatishini tasdiqladi. Mazkur yondashuv urban hududlarda havoning ifloslanish darajasini tezkor baholash, ekologik xavf zonalarini aniqlash va atmosfera monitoringi tizimlarini takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: koinotdan olingan tasvirlar, masofadan zondlash, AOD, Sentinel-5P, meteorologik parametrlar, atmosfera ifloslanishi, algoritm, raqamli tasvirlarni qayta ishlash, ekologik monitoring.

Abstract. This article presents the development of an improved algorithm for estimating atmospheric PM2.5 concentration under the conditions of Tashkent city and evaluates its practical effectiveness. The study integrates aerosol optical depth (AOD) data obtained from MODIS and VIIRS platforms, gaseous indicators including NO_2, SO_2, and CO derived from Sentinel-5P, as well as meteorological parameters and ground-based monitoring observations. Based on satellite data preprocessing, spatial-temporal harmonization, and mathematical-statistical

ISSN 3030-3907

modeling, a model for PM2.5 estimation was proposed. The results confirmed that the improved algorithm demonstrates higher accuracy compared to the classical AOD–PM2.5 model. The proposed approach is of practical importance for rapid assessment of urban air pollution levels, identification of ecological risk zones, and improvement of atmospheric monitoring systems.

Keywords: satellite image, remote sensing, aerosol optical depth, Sentinel-5P, meteorological parameters, air pollution, algorithm, digital image processing, environmental monitoring.

KIRISH.

So‘nggi yillarda atmosfera havosining ifloslanishi ekologik xavfdan tashqari, sog‘liqni saqlash va urban boshqaruv bilan bevosita bog‘liq murakkab masalaga aylandi. Tadqiqotda fondga doir ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti xabarlari bo‘yicha havo ifloslanishi bilan bog‘liq erta o‘limlar soni yiliga qariyb 7 million nafarga yetadi, ayniqsa PM2.5 mayda dispers zarrachalari yurak-qon tomir va nafas yo‘llari kasalliklari xavfini oshiradi. Shu bilan birga, PM2.5 ning yillik o‘rtacha me’yori 5 μg/m³ dan oshmasligi lozim bo‘lsa-da, ko‘plab hududlarda bu ko‘rsatkich ancha yuqori qayd etiladi. Shu sababli atmosfera havosidagi zararli moddalarning konsentratsiyasini tezkor, fazoviy aniqligi yuqori va real sharoitga mukammal usullar bilan baholash dolzarb ilmiy vazifaga aylangan. Mazkur masala O‘zbekiston sharoitida, ayniqsa Toshkent shahri misolida yanada dolzarbdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-noyabrdagi "Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-229-sonli Farmoni poytaxtda atmosfera havosi sifatini yaxshilashga qaratilgan strategik hujjat sifatida qabul qilindi [1]. Mazkur Farmon yer usti ekologik monitoring tizimini modernizatsiya qilish, sanoat va transport tarmoqlarida chiqindilar nazoratini kuchaytirish hamda shahar infratuzilmasini ekologik jihatdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutadi. Farmonga muvofiq, smog (havo ifloslanishi, ya’ni shahar ustida paydo bo‘ladigan zaharli, kulrang, tuman-simon zich havo qatlami) va noqulay meteorologik sharoitlarga tezkor javob qaytarish mexanizmi ishga tushirildi, bunda sanoat obyektlari va qurilish maydonchalari faoliyatini vaqtincha cheklash, avtotransport vositalari tomonidan atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalarni nazorat qilish kabi operativ choralar belgilangan. Atmosfera havosi monitoring tizimini rivojlantirish maqsadida 1000 taga yaqin fon monitoring stansiyasini o‘rnatish, "O‘zbekiston havo monitoringi" tarmog‘ini modernizatsiya qilish, shu jumladan "Zamin" jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 23 ta avtomatlashtirilgan kompleks stansiyani joriy etish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, PM2.5 dispers

ISSN 3030-3907

zarrachalarining kimyoviy-fizik tarkibini chuqur tahlil qilish uchun ixtisoslashgan laboratoriya tashkil etilmoqda. Qurilish-ta'mirlash ishlaridan kelib chiqadigan changlanish manbalarini cheklash bo‘yicha qat'iy talablar o‘rnatildi: qurilish maydonchalarida chang emissiyasining oldini olish, muntazam sug‘orish ishlarini amalga oshirish, maydonchalardan chiqish joylarini himoyalash hamda qurilish materiallarini tashish jarayonlari ustidan kuzatuvni kuchaytirish majburiy hisoblanadi.

Shahar ko‘kalamzorlashtirish yo‘nalishida "Toshkentning yashil yo‘lagi" dasturi ishga tushirilib, umumiy uzunligi 33 km bo‘lgan yashil kamarlar barpo etilmoqda va 700 ta tumanga zamonaviy sug‘orish hamda obodonlashtirish tizimlari joriy qilinmoqda. Shuningdek, farmonda, jamoat transporti tarmog‘ini kengaytirish, velosiped infratuzilmasini rivojlantirish, ruxsatsiz chiqindixonalarga qarshi kurashish va yuqori darajali idoralararo komissiyani tashkil etish masalalari o‘z aksini topgan. Mazmun-mohiyati jihatidan mazkur hujjat poytaxtning ekologik barqarorligini ta'minlash borasida qat'iy, muvofiqlashtirilgan va uzoq muddatli davlat siyosatini shakllantirmoqda. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, shahri atmosferasidagi zararli moddalar konsentratsiyasining yuqori darajasi sanoat korxonalari faoliyati, intensiv avtomobil transporti oqimi, qurilish ishlari, markazlashtirilgan issiqlik ta'minoti tizimlari, mavsumiy aerozol changlanish hamda meteorologik inversiya hodisalarining kompleks ta'siri natijasida shakllanadi. Bu kabi ko‘p omilli sharoitda atmosfera havosi sifatini baholash va ifloslanish manzarasini obyektiv aks ettirish uchun yagona yer usti monitoring tarmog‘iga tayanish metodologik jihatdan yetarli emas.

Yer usti stansiyalari cheklangan hududiy qamrovga ega bo‘lib, shahar miqyosidagi ifloslanishning fazoviy-vaqtinchalik heterogenligini va mikro-hududiy tafovutlarini to‘liq qayd eta olmaydi. Shu nuqtai nazardan, masofadan zondlash usullari hamda koinotdan olingan tasvirlar kuzatuv ma'lumotlariga asoslangan PM2.5 zarrachalari konsentratsiyasini baholash metodikasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Sputnik platformalari tomonidan taqdim etiladigan yuqori aniqlikdagi ma'lumotlar atmosfera ifloslanishining hududiy-vaqtinchalik dinamikasini tahlil qilish, ekologik xavfli zonalarni aniqlash va tabaqalashtirish, shuningdek, yer usti monitoringi natijalari bilan integratsiyalashgan holda havo sifatini kompleks baholash imkonini yaratadi.

Mazkur yondashuv atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslangan tarzda ishlab chiqish va Farmonda belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish uchun zarur metodologik poydevorni tashkil etadi. Tadqiqotda masalani hal etish uchun koinotdan olingan tasvirlar va meteorologik ma’lumotlarni integratsiyalovchi takomillashtirilgan

ISSN 3030-3907

algoritm ishlab chiqilgan. Hisoblash tajribalari 2024–2025-yillar ma’lumotlari asosida Toshkent shahri bo‘yicha olib borilgan bo‘lib, ularda MODIS va VIIRS platformalaridan olingan AOD ma’lumotlari, Sentinel-5P asosidagi NO_2, SO_2 va CO indikatorlari, shuningdek shamol tezligi va yo‘nalishi, havo harorati, nisbiy namlik hamda atmosfera bosimi kabi meteorologik parametrlar qo‘llanilgan. Barcha ko‘rsatkichlar yagona fazoviy-vaqt aniqliksiga keltirilib, piksel darajasida hisoblash bajarilgan. Mazkur yondashuv klassik AOD–PM2.5 modelidan farqli PM2.5 ning shakllanishi va tarqalishiga ta’sir etuvchi fizik-meteorologik omillarni ham hisobga olishi bilan ajralib turadi.

Olingan natijalar tahlili takomillashtirilgan algoritmning ustunligini ko‘rsatdi. Xususan, klassik modelda R^2 = 0,52–0,60 bo‘lgan bo‘lsa, takomillashtirilgan algoritmda bu ko‘rsatkich 0,75–0,83 gacha oshgan; RMSE 18–22 μg/m³ dan 10–14 μg/m³ gacha, MAE 14–17 μg/m³ dan 7–10 μg/m³ gacha kamaygan, Bias esa −6…−9 dan −2…+2 μg/m³ oralig‘iga tushgan. Bundan tashqari, Tadqiqotda mavsumiy tahlil qish davrida PM2.5 ning o‘rtacha konsentratsiyasi yozga nisbatan 1,4–1,7 baravar yuqori bo‘lishini, shamol tezligi 2 m/s dan past bo‘lganda esa konsentratsiya keskin oshishini ko‘rsatgan. Bu holat meteorologik parametrlarni modelga kiritish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham zarurligini tasdiqlaydi.

Shu asosda mazkur maqolaning maqsadi koinotdan olingan tasvirlar, gaz indikatorlari va meteorologik parametrlar integratsiyasi asosida Toshkent shahri sharoitida PM2.5 konsentratsiyasini aniqlashning takomillashtirilgan algoritmini yoritish, uning klassik yondashuvlarga nisbatan afzalliklarini ko‘rsatish hamda atmosfera monitoringi uchun ishlab chiqilgan dasturiy yechimning ilmiy-amaliy samaradorligini asoslashdan iborat.

Koinotdan olingan tasvirlar ma’lumotlariga dastlabki ishlov berish sezilarli darajada takomillashdi. Jumladan, **MAIAC** algoritmi asosida yaratilgan MODIS AOD mahsulotlari 1 km aniqlikda aerosolni optik yutilish chuqurligini (agar optik yutilish chuqurligi katta bo‘lsa → yorug‘lik kam o‘tadi (tuman, chang, ifloslanish kuchli), -agar optik yutilish chuqurligi kichik bo‘lsa → muhit tiniq (yorug‘lik yaxshi o‘tadi) olish imkonini berdi hamda bulut va soya filtratsiyasi sifatini oshirdi [2]. Bu urban hududlar uchun ayniqsa muhim, chunki klassik yirik piksel o‘lchamidagi mahsulotlarda transport yo‘llari, sanoat tugunlari va qurilish zonalari kabi lokal manbalar “yo‘qolib ketishi” mumkin. Shuningdek, A.B.Chelani ishida AOD bilan bir qatorda harorat, nisbiy namlik, shamol tezligi, bosim va aralashish qatlami balandligini regressiya tenglamasiga kiritish model aniqligini oshirishi ko‘rsatilgan [3]. Demak, tasvirlarni oldindan qayta ishlash, sifat nazorati va

ISSN 3030-3907

meteorologik normallashtirish PM2.5 ni koinotdan olingan tasvirlar baholash algoritmlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Atmosferadagi zararli moddalarning konsentratsiyasini baholashda faqat aerozollar emas, balki **gaz indikatorlari** ham muhim yordamchi omil sifatida qaralgan. Bu borada Sentinel-5P platformasidagi **TROPOMI** asbobi yangi bosqichni boshlab berdi. Veefkind va hammualliflari TROPOMI missiyasini global atmosfera tarkibini kuzatish uchun mo‘ljallangan, NO_2, SO_2, CO va boshqa asosiy troposfera komponentlarini yuqori fazoviy aniqlikda o‘lchaydigan tizim sifatida tavsiflagan [4]. Copernicus ma’lumotlariga ko‘ra, TROPOMI NO_2 mahsuloti missiyaning boshida 3.5 × 7.0 km, 2019-yil 6-avgustdan boshlab esa **3.5 × 5.5 km** fazoviy aniqlikda taqdim etila boshlandi [5]. J. van Geffen va hammualliflari esa NO_2 retrieval algoritmining **v2.2** versiyasi 2021-yil 1-iyuldan operatsion joriy etilganini va unda kalibrlash hamda hisoblash bosqichlari sezilarli yaxshilanganini ko‘rsatadilar [3, 6]. Shu sababli, zamonaviy tadqiqotlarda TROPOMI mahsulotlari PM2.5 ni bevosita emas, balki **gazsimon ifloslantiruvchilar fonini ifodalovchi yordamchi prediktorlar** sifatida qo‘llanmoqda.

So‘nggi yillardagi tadqiqotlar yana bir muhim tendensiyani ko‘rsatmoqda: ya’ni algoritmlar endi faqat nazariy model sifatida emas, balki **amaliy dasturiy vosita** shaklida ishlab chiqilib, Google Earth Engine e’lon qilingan tadqiqotda interaktiv vosita Sentinel-5P, GEOS-CF va MODIS ma’lumotlarini **1 km** fazoviy o‘lchamga standartlashtirib, sifat filtrlash va vaqt bo‘yicha agregatsiya funksiyalarini bir tizimda jamlagani qayd etilgan [3, 7]. Bu yo‘nalish bizning mavzuingiz uchun bevosita ahamiyatli, chunki ilmiy yangilik endi faqat “algoritm taklifi” bilan cheklanmay, balki uni foydalanuvchi uchun qulay, avtomatlashtirilgan hamda vizual ko‘rinishda ishlaydigan **dasturiy majmua**ga aylantirish bilan baholanmoqda.


Shunday qilib, tahlil qilingan adabiyotlar asosida uchta asosiy ilmiy xulosa chiqarish mumkin. Birinchidan, PM2.5 ni koinotdan olingan tasvirlar ma’lumotlari yordamida baholash bo‘yicha tadqiqotlar AOD ga tayanuvchi oddiy regressiya modellaridan ko‘p manbali gibrid va mashinaviy o‘rganish modellariga o‘tgan. Ikkinchidan, meteorologik parametrlar va gaz indikatorlarini modelga kiritish baholash aniqligini oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etilgan. Uchinchidan, ilmiy adabiyotlarda algoritmni amaliy dasturiy tizim ko‘rinishida joriy etish tendensiyasi kuchaymoqda. Biroq bizning dissertatsiyangizda ham qayd etilganidek, O‘zbekiston sharoitida, xususan Toshkent shahri misolida, koinotdan olingan tasvirlar, meteorologik parametrlar va gaz indikatorlarini yagona hisoblash

ISSN 3030-3907

zanjirida birlashtirib, mahalliy sharoitga moslashgan algoritm hamda dasturiy yechim yaratish masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan**.**

Mazkur tadqiqotda atmosferadagi PM2.5 konsentratsiyasini baholash uchun masofadan zondlash, geoinformatsion tahlil, raqamli tasvirlarni qayta ishlash va matematik-statistik modellashtirish usullari kompleks qo‘llanildi. Tadqiqotning axborot bazasini MODIS va VIIRS platformalaridan olingan AOD mahsulotlari, Sentinel-5P asosidagi NO_2, SO_2 va CO gaz indikatorlari, meteorologik parametrlar va yer usti PM2.5 kuzatuv ma’lumotlari tashkil etdi.

Koinotdan olingan tasvir ma’lumotlari dastlab oldindan ishlov berildi: geometrik moslashtirish, radiometrik tuzatish, bulut va artefaktlarni ajratish, shovqinni kamaytirish, hudud bo‘yicha kesish hamda fazoviy-vaqt aniqliksini moslashtirish bosqichlari bajarildi. So‘ng meteorologik omillar normallashtirilib, hududiy koeffitsientlar kiritildi va koinotdan olingan tasvirlar indikatorlar bilan yer usti PM2.5 o‘lchovlari o‘rtasidagi bog‘liqlik korrelyatsion-regressiyaviy usullar asosida modellashtirildi. Takomillashtirilgan algoritm natijalari klassik AOD–PM2.5 modeli bilan solishtirildi hamda R^2, RMSE, MAE va Bias mezonlari bo‘yicha baholandi. Yakuniy bosqichda PM2.5 ning fazoviy taqsimoti GIS asosida xaritalashtirildi va hisoblash jarayonlarini avtomatlashtiruvchi dasturiy prototip ishlab chiqildi.




1-rasm.Tajriba hududining joylashuv xaritasi

Hisoblash tajribalari Toshkent shahri hududi misolida **2024–2025-yillar** ma’lumotlari asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda PM2.5 konsentratsiyasini baholash uchun koinotdan olingan tasvirlar va yer usti ma’lumotlari yagona hisoblash muhitida integratsiya qilindi. Jumladan, Sentinel-5P dan CO, meteorologik kuzatuvlardan shamol tezligi (**0,8–4,6 m/s**), nisbiy namlik (**42–78 %**), havo harorati (**−2 °C – +34 °C**) va atmosfera bosimi (**945–985 gPa**) ko‘rsatkichlari olindi. Yer usti monitoringi bo‘yicha PM2.5 konsentratsiyasi odatda


ISSN 3030-3907

25–95 µg/m³ oralig‘ida kuzatilgan bo‘lib, ayrim “issiq nuqta”larda bu qiymat **100 µg/m³** gacha yetgani qayd etildi.



2-rasm. Takomillashtirilgan algoritm asosida PM2.5 konsentratsiyasining fazoviy taqsimoti (Toshkent shahri misolida)

Takomillashtirilgan algoritm asosida olingan fazoviy xaritalar PM2.5 konsentratsiyasining hudud bo‘yicha notekis taqsimlanganini ko‘rsatdi. Ayniqsa, yirik avtomobil magistrallari kesishmalari, sanoat zonalari hamda transport-logistika tugunlari atrofida ifloslanish darajasi yuqori ekani aniqlandi. Mazkur hududlarda PM2.5 ning o‘rtacha qiymati **80–95 µg/m³** gacha yetgan, ayrim kunlarda esa qisqa muddatli maksimal qiymatlar **100 µg/m³** ga yaqinlashgan. Bu holat ifloslanishning shahar hududida bir tekis tarqalmaganini, balki emissiya manbalari va meteorologik sharoitlarga kuchli bog‘liqligini ko‘rsatadi.



3-rasm. PM2.5 ning barqaror yuqori konsentratsiyaga ega “issiq nuqtalari”

Vaqt bo‘yicha tahlil ham muhim qonuniyatlarni ochib berdi. Kunlik kesimda ertalab va kechki soatlarda, ya’ni transport faolligi yuqori bo‘lgan davrlarda, PM2.5 konsentratsiyasi o‘rtacha **15–25 %** ga oshgani kuzatildi. Mavsumiy tahlil esa qish davrida PM2.5 ning o‘rtacha miqdori yoz mavsumiga nisbatan **1,4–1,7 baravar** yuqori ekanini ko‘rsatdi. Bu qish oylarida inversiya hodisalari, shamol tezligining pasayishi va yoqilg‘i yoqish bilan bog‘liq emissiyalar natijasida

ISSN 3030-3907

ifloslantiruvchi moddalarning past atmosfera qatlamida ko‘proq to‘planishi bilan izohlanadi.

Meteorologik omillar bilan bog‘liqlik tahlili taklif etilgan algoritmning fizik asoslanganligini tasdiqladi. Xususan, shamol tezligi **2 m/s dan past** bo‘lgan holatlarda PM2.5 konsentratsiyasi keskin oshgani, nisbiy namlik **70 % dan yuqori** bo‘lganda esa aerozol zarrachalarining gigroskopik o‘sishi kuzatilgani aniqlandi. Bu natija shuni ko‘rsatadiki, havodagi mayda dispers zarrachalarning konsentratsiyasi faqat optik ko‘rsatkichlar bilan emas, balki meteorologik sharoitlar bilan ham chambarchas bog‘liq. Shuning uchun AOD ga asoslangan oddiy modeldan farqli ravishda, shamol, namlik, harorat va gaz indikatorlarini integratsiyalash algoritm aniqligini sezilarli oshiradi.Takomillashtirilgan algoritm samaradorligini baholash maqsadida uning natijalari klassik **AOD–PM2.5** yondashuvi bilan solishtirildi. Solishtirma tahlil natijalariga ko‘ra, klassik modelda determinatsiya koeffitsienti **R^2 = 0,52–0,60** oralig‘ida bo‘lgan bo‘lsa, takomillashtirilgan algoritmda bu ko‘rsatkich **0,75–0,83** gacha oshgan. Shuningdek, klassik modelda **RMSE = 18–22 µg/m³**, **MAE = 14–17 µg/m³** va **Bias = −6…−9 µg/m³** bo‘lgan bo‘lsa, yangi algoritmda mos ravishda **RMSE = 10–14 µg/m³**, **MAE = 7–10 µg/m³** va **Bias = −2…+2 µg/m³** ga teng bo‘ldi. Ushbu natijalar takomillashtirilgan algoritm yer usti kuzatuvlari bilan sezilarli darajada yaxshiroq mos kelishini va tizimli xatolar ancha kamayganini ko‘rsatadi.

1-jadval.

Klassik AOD–PM2.5 modeli va takomillashtirilgan algoritm natijalarining solishtirma tahlili

Ko‘rsatkich	Klassik model	Takomillashtirilgan algoritm
R^2	0,52–0,60	**0,75–0,83**
RMSE (µg/m³)	18–22	**10–14**
MAE (µg/m³)	14–17	**7–10**
Bias (µg/m³)	−6…−9	**−2…+2**
Fazoviy aniqlik	Past	**Yuqori**
Meteorologiya	Cheklangan	**To‘liq integratsiya**

Muhokama nuqtai nazaridan qaralganda, yangi algoritmning ustunligi avvalo uning **ko‘p omilli matematik yondashuv**ga asoslanganidadir. Klassik model asosan aerosol optik qalinligiga tayanadi va shu sababli qurg‘oqchil hududlar, urban “issiq nuqta”lar, qishki inversiya holatlari hamda yuqori namlik sharoitlarida real yer sathidagi PM2.5 ni yetarli darajada aks ettira olmaydi. Takomillashtirilgan algoritmda esa AOD bilan bir qatorda **NO_2, SO_2, CO** kabi gaz indikatorlari hamda asosiy meteorologik parametrlar integratsiya qilingani sababli PM2.5 ning ikkilamchi shakllanish mexanizmlari va tarqalish jarayonlari ancha

ISSN 3030-3907

to‘liq hisobga olinadi. Hududiy tuzatish koeffitsientlarining kiritilishi modelni Toshkent kabi qurg‘oqchil iqlim va yuqori chang foniga ega hududlarga yaxshiroq moslashtiradi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, takomillashtirilgan algoritm ayniqsa **meteorologik inversiya** holatlarida, **shamol tezligi past (≤2 m/s)** bo‘lgan kunlarda, **qish mavsumida**, **yuqori namlik sharoitida**, shuningdek **sanoat va transport emissiyalari kuchli bo‘lgan hududlarda** ustun natija berdi. Klassik AOD–PM2.5 modeli esa aynan shu sharoitlarda aerozolning optik xususiyatlariga haddan tashqari bog‘lanib qolganligi sababli real konsentratsiyani past baholashga moyillik ko‘rsatdi. PM2.5 ni masofadan baholash masalasida koinotdan olingan tasvirlar, gaz indikatorlari va meteorologik omillar integratsiyasiga tayangan yondashuv urban ekologik monitoring uchun ancha ishonchli hisoblanadi.

Xulosa. Atmosfera havosidagi mayda dispers zarrachalar va gazsimon ifloslantiruvchilarni koinotdan olingan tasvirlar ma’lumotlar asosida baholash bo‘yicha ilmiy izlanishlar avvalo **AOD–PM2.5** bog‘liqligini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar bilan shakllangan. Bu yo‘nalishda A. van Donkelaar va hamkorlarining ishlari alohida o‘rin tutadi. Ular MODIS va MISR dan olingan aerosolning optik yutilish chuqurlik ma’lumotlarini GEOS-Chem kimyoviy transport modeli bilan birlashtirib, yer sathidagi PM2.5 konsentratsiyasini global miqyosda baholash mumkinligini ko‘rsatganlar [4, 6]. Keyingi tadqiqotlarida esa ko‘p yillik sun’iy yo‘ldosh kuzatuvlarini birlashtirish orqali insonlarning uzoq muddatli PM2.5 ta’siriga duchor bo‘lish darajasini aniqroq baholash usuli taklif etilgan [5]. Mazkur ishlarning asosiy yutug‘i shundaki, ular sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlarini oddiy vizual monitoring vositasi emas, balki **miqdoriy ekologik baholash manbai** sifatida ilmiy muomalaga olib kirdi. Biroq ushbu bosqichdagi modellar asosan global va mintaqaviy ko‘lamga yo‘naltirilgan bo‘lib, urban hududlardagi mayda fazoviy tafovutlarni yetarli darajada aks ettira olmagan.

Keyingi bosqichda ilmiy adabiyotlarda AOD asosidagi yondashuvlarning imkoniyatlari bilan birga ularning cheklovlari ham solishtirma tahlil qilindi. Xususan, Y.Chu va hammualliflarining sharhiy maqolasida 116 ta ilmiy ish umumlashtirilib, PM2.5 ni sun’iy yo‘ldosh AOD ma’lumotlari orqali baholash modellari bir necha guruhlarga ajratilgan va ularning afzallik hamda kamchiliklari ko‘rsatib berilgan [6]. Mazkur sharhda AOD bilan yer sathidagi PM2.5 o‘rtasidagi bog‘liqlik doimiy emasligi, unga namlik, atmosfera chegara qatlami balandligi, aerozolning vertikal taqsimoti, fasliy omillar va yer qoplami xususiyatlari kuchli ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi. Demak, faqat bitta optik ko‘rsatkichga tayanuvchi regressiya modellari murakkab urban sharoitlarda barqaror natija bermaydi. Bu xulosa tadqiqot mavzusi uchun juda muhim, chunki aynan shu holat

ISSN 3030-3907

takomillashtirilgan, ko‘p omilli algoritm zaruratini asoslaydi. Shu ilmiy mantiq asosida tadqiqotchilar asta-sekin **gibrid va ko‘p manbali modellar**ga o‘ta boshladilar. Q.Di va boshqlari PM2.5 ni yuqori fazoviy-vaqt aniqligida baholash uchun AOD, meteorologik maydonlar, yer qoplami ko‘rsatkichlari va boshqa yordamchi o‘zgaruvchilarni integratsiyalagan modelni taklif qildilar [8, 10]. Keyinchalik shu yo‘nalish rivojlantirilib, uchta mashinaviy o‘rganish algoritmini birlashtirgan ansambl model yordamida AQSh hududi bo‘yicha **1 km** aniqlikdagi kunlik PM2.5 xaritalari tuzildi va modelning 10-fold cross-validated natijalari kunlik baholash uchun $\mathbf{R^2 = 0.86}$, yillik baholash uchun $\mathbf{R^2 = 0.89}$ ekanligi ko‘rsatildi [9, 11]. Ushbu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy baholash tizimlari AOD ni mustaqil indikator sifatida emas, balki meteorologiya, land use va kimyoviy model natijalari bilan birga ishlatgandagina yuqori aniqlikka erishadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, koinotdan olingan tasvirlar, gaz indikatorlari va meteorologik parametrlarni yagona hisoblash zanjirida integratsiyalash PM2.5 konsentratsiyasini baholash aniqligini sezilarli oshirdi. Taklif etilgan algoritm klassik AOD–PM2.5 yondashuviga nisbatan yuqori fazoviy aniqlik va statistik ishonchlilikni namoyon etdi hamda urban hududlarda ifloslanishning “issiq nuqtalari”ni aniqlashda samaraliroq bo‘ldi. Ishlab chiqilgan yondashuv shahri sharoitida havoning ifloslanish darajasini tezkor baholash, ekologik xavf zonalarini xaritalash va monitoring natijalarini amaliy boshqaruv qarorlariga tatbiq etish imkonini beradi. Shu bois takomillashtirilgan algoritm va dasturiy prototip atmosfera monitoringi tizimlarini modernizatsiya qilishda ilmiy asoslangan hamda amaliy jihatdan samarali yechim sifatida tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-noyabrdagi "Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-229-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/uz/docs/-7852957
2. Djumanov J.X., Allamuratova Z.J., Mirzaganiev S.I., O‘rinbaev A.Sh. Sun'iy yo‘ldosh tasvirlari va modellash tizimlarining integratsiyasi asosida atmosfera ifloslanishini baholash yondashuvi // International Scientific Conference "Scientific Foundations for the Use of Information Technologies of a New Level and Modern Problems of Automation". B. 712–721.
3. Djumanov J.X., Kuchkorov T.A., Ochilov T.D., ...Sabitova N.Q. Satellite Imagery Super Resolution Using Classical and Deep Learning Algorithms/ Lecture Notes in Computer Science Including Subseries Lecture Notes in Artificial Intelligence and Lecture Notes in Bioinformatics. 2024

ISSN 3030-3907

4. Djumanov J.X., Safarov F.A., Kuchkorov T.A., Abdusalomov A.B., Cho, Y.-I. Improved Agricultural Field Segmentation in Satellite Imagery Using TL-ResUNet Architecture/ Sensors, 22(24). 2022
5. Lyapustin A., Wang Y., Korkin S., Huang D. MODIS Collection 6 MAIAC algorithm // Atmospheric Measurement Techniques. 2018. Vol. 11. P. 5741–5765.
6. Veefkind J.P., Aben I., McMullan K. et al. TROPOMI on the ESA Sentinel-5 Precursor: A GMES mission for global observations of the atmospheric composition for climate, air quality and ozone layer applications // Remote Sensing of Environment. 2012. Vol. 120. P. 70–83.
7. Seinfeld J.H., Pandis S.N. Atmospheric Chemistry and Physics: From Air Pollution to Climate Change. 2nd ed. New York: John Wiley & Sons, 2006. 1203 p.
8. Pope C.A., Dockery D.W. Health Effects of Fine Particulate Air Pollution: Lines that Connect // Journal of the Air & Waste Management Association. — 2006. Vol. 56, No. 6. P. 709–742.
9. Wang J., Liu X. AOD–PM2.5 Relationship: Influence of Aerosol Vertical Distribution and Particle Properties // Journal of Geophysical Research: Atmospheres. 2014. Vol. 119. P. 1–16.
10. Jacobson M.Z. Atmospheric Pollution: History, Science, and Regulation. Cambridge: Cambridge University Press, 2002. 399 p.
11. Van Donkelaar A., Martin R.V., Boys B.L. Use of satellite observations for long-term exposure assessment of global concentrations of fine particulate matter // Environmental Health Perspectives. 2015. Vol. 123, No. 2. P. 135–143.

ISSN 3030-3907

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLYUZIV TA‘LIM ASOSIDA TARBIYALASH

O‘rinboyeva Elnora Furqat qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi Toshkent viloyati Bekobod tumani
E-mail: e6445214@gamil.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim maktablariga integratsiya qilish jarayonida inklyuziv ta’limning o‘rni va ahamiyati tadqiq etiladi. Maqolada bolalarning jismoniy va ruhiy holatidan kelib chiqqan holda ularni tarbiyalash metodlari, Individual Ta’lim Dasturlari (ITD) hamda maktablarda "to‘siqsiz muhit" yaratish mexanizmlari tahlil qilingan.

Kalitso‘zlar: inklyuziv ta’lim, imkoniyati cheklangan bolalar, ijtimoiy adaptatsiya, tutor, ITD, universal dizayn, integratsiya, korreksion pedagogika.

Аннотация. В данной статье исследуется роль и значение инклюзивного образования в процессе интеграции детей с ограниченными возможностями в общеобразовательные школы. В статье анализируются методы воспитания детей исходя из их физического и психического состояния, индивидуальные образовательные программы (ИОП) и механизмы создания «безбарьерной среды» в школах.

Ключевые слова:Ключевые слова: инклюзивное образование, дети с ОВЗ, социальная адаптация, тьютор, ИОП, универсальный дизайн, интеграция, коррекционная педагогика.

Annotation. This article explores the role and significance of inclusive education in the process of integrating children with disabilities into general education schools. The article analyzes methods of educating children based on their physical and mental state, Individual Educational Programs (IEP), and mechanisms for creating a "barrier-free environment" in schools.

Keywords:Keywords: inclusive education, children with disabilities, social adaptation, tutor, IEP, universal design, integration, correctional pedagogy.

KIRISH.

XXI asr ta’lim tizimining bosh maqsadi — barcha bolalar uchun, ularning jismoniy, intellektual yoki boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar, teng huquqli bilim olish imkoniyatini yaratishdir. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, 2020-yilgi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun va inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi bu boradagi huquqiy poydevor hisoblanadi.Imkoniyati cheklangan bolalar kimlar? Bular sog‘lig‘ida uzoq muddatli nuqsonlari bor, ya‘ni bularga kiradi:tayanch harakat a‘zolari shikastlanganlar.Bu guruhga asosan,bolalar (BTSB)bilan og‘rigan boalar kiradi.Ularning ko‘pchiligi aqliy jihatdan sog‘lom bo‘lsa-da motorika va harakatlanishida yordamga muhtoj.Sensor nuqsonli

ISSN 3030-3907

bolalar:ko‘rish hamda eshitishida nuqsoni bor bolalar.Keyin nutqida og‘ir nuqsoni borlar.Alaliya ,afaziya va og‘ir duduqlanish holatidagilar.Psixofizik rivojlanishida kechikishi bo‘lganlar.Ruhiy rivojlanish sustlashishi va autizm spektri buzilishilar bo‘lgan bolalar. Natijada o‘quv jarayonida to‘siqlarga duch keladigan bolalardir. Ilmiy nuqtai nazardan, ularni jamiyatdan ajratib (segregatsiya), faqat ixtisoslashtirilgan internatlarda o‘qitish ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini zaiflashtiradi. Shu sababli, inklyuziv ta’lim orqali ularni tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir

Bugungi kunda jahon miqyosida inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillari ta’lim tizimining asosiy poydevoriga aylandi. Imkoniyati cheklangan bolalarning sifatli ta’lim olish huquqi BMTning "Nogironlar huquqlari to‘g‘risida"gi konvensiyasi va YUNESKOning bir qator deklaratsiyalarida o‘z aksini topgan. O‘zbekiston Respublikasida ham 2020-2025-yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilingan bo‘lib, bu soha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Uzoq yillar davomida Imkoniyati Cheklangan Bolalarni faqat ixtisoslashtirilgan internatlarda, jamiyatdan ajratilgan holda ta’lim olib kelishdi. Bu esa ularning kelajakda mustaqil hayotga moslashishini qiyinlashtirdi. Inklyuziv ta’lim esa ushbu bolalarni sog‘lom tengdoshlari bilan bir safda o‘qitish orqali ularni ijtimoiylashtirishni maqsad qiladi. Biroq, maktablarning metodik va texnik tayyor emasligi ushbu jarayonda asosiy to‘siq bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida inklyuziv ta’lim alohida ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta’lim — bu barcha bolalarning, ularning jismoniy, aqliy yoki psixologik holatidan qat’i nazar, umumiy ta’lim muassasalarida teng huquqli asosda bilim olishlarini ta’minlovchi pedagogik tizimdir. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib qo‘ymasdan, balki ularni ijtimoiy hayotga faol jalb etish va integratsiya qilishdan iboratdir[1].

Inklyuziv ta’limning muhim jihati shundaki, u faqatgina imkoniyati cheklangan bolalar uchun emas, balki barcha o‘quvchilar uchun qulay, moslashuvchan va samarali ta’lim muhitini yaratishni nazarda tutadi. Bu tizimda har bir bolaning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlari inobatga olinadi. Natijada ta’lim jarayoni differensial va individuallashtirilgan holda tashkil etiladi.Inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi quyidagi pedagogik yondashuvlarga amal qilishi zarur: birinchidan, har bir o‘quvchining psixologik va fiziologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish; ikkinchidan, dars jarayonida differensial va individual topshiriqlardan foydalanish; uchinchidan, interaktiv va innovatsion metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning faolligini

ISSN 3030-3907

oshirish. Shuningdek, o‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, vizual va audio vositalarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, inklyuziv ta’lim jarayonida sog‘lom va imkoniyati cheklangan bolalar o‘rtasida hamkorlik muhitini yaratish, o‘zaro hurmat va bag‘rikenglikni shakllantirish ham muhim vazifalardan biridir. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi rolini ham bajaradi.Shunday qilib, inklyuziv ta’lim zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u ta’lim tizimining insonparvarlik mohiyatini namoyon etadi hamda har bir bolaning to‘laqonli rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

METODLAR.

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’lim sharoitida tarbiyalash jarayoni o‘ta murakkab va ko‘p qirrali pedagogik hodisa bo‘lganligi sababli, ushbu tadqiqotni tashkil etishda kompleks va multidissiplinar yondashuv metodologik asos qilib olindi. Tadqiqotning metodologik strategiyasi bolaning jismoniy yoki intellektual yetishmovchiligini faqat tibbiy nuqtai nazardan emas, balki uni jamiyatning to‘laqonli sub’ekti sifatida shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik modelga tayanadi.Tadqiqot ishining metodologik apparati L.S. Vygotskiyning "nuqsonning ijtimoiy kompensatsiyasi" nazariyasi hamda zamonaviy "inklyuziv ekologiya" tamoyillari asosida shakllantirildi. Mazkur yondashuv tadqiqot davomida qo‘llaniladigan metodlarni nafaqat ma’lumot yig‘ish vositasi, balki bolaning yashirin imkoniyatlarini (rezervlarini) aniqlash va ularni rivojlantirish mexanizmi sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Metodlar tizimi quyidagi konseptual talablarga muvofiq tanlab olindi:

Ob’ektivlik tamoyili: Bolaning rivojlanish dinamikasini sub’ektiv baholardan xoli ravishda, ilmiy diagnostik ko‘rsatkichlar asosida o‘rganish.

Gumanistik yo‘naltirilganlik: Tadqiqot metodlarining bola shaxsiga zarar yetkazmasligi va uning qadr-qimmatini saqlagan holda amalga oshirilishi.

Varyativlik: Har bir nuqson turi (ko‘rish, eshitish, tayanch-harakat) uchun metodik vositalarning differensial (tabaqalashgan) holda moslashtirilishi.

Deskriptiv-pedagogik kuzatuv (Descriptive Observation):Kuzatuv jarayoni "strukturalashtirilgan" va "erkin" formatlarda olib boriladi. Bunda bolaning dars davomidagi:

Kognitiv faolligi: Topshiriqlarni qabul qilish tezligi va diqqatning barqarorligi.

Emotsional barqarorligi: Notanish vaziyatlar yoki murakkab masalalarga nisbatan hissiy reaksiyasi.

Ijtimoiy integratsiyasi: Tanaffus va dars paytida tengdoshlari bilan aloqa o‘rnatish chastotasi.

ISSN 3030-3907

Kuzatuv natijalari maxsus "Pedagogik monitoring kundaligi"ga tushirilib, dinamik o‘zgarishlar tahlil qilinadi.

Eksperimental-korreksion metodlar:Tadqiqotning asosi sifatida "Universal Design for Learning" (UDL) tamoyili qo‘llaniladi. Bu metodik yondashuvda ta’lim materiallari uch xil usulda taqdim etiladi:

Ko‘p qirrali taqdimot (Multiple means of representation): Matnli, audial va vizual (grafik, video) axborotlar uyg‘unligi.

Ko‘p qirrali ifoda (Multiple means of expression): Bolaga o‘z bilimini namoyish etishda tanlov berish (yozma, og‘zaki yoki texnik vositalar yordamida).

Ko‘p qirrali jalb qilish (Multiple means of engagement): Bolaning qiziqishlariga mos keladigan motivatsion omillarni qo‘llash.

Psixodiagnostik va Sotsiometrik tahlil:

Imkoniyati cheklangan bolalarning sinf jamoasidagi o‘rnini aniqlash uchun J. Moreno sotsiometriyasi metodikasidan foydalaniladi. Ushbu metod orqali "ijtimoiylashuv indeksi" hisoblab chiqiladi. Bu indeks inklyuziv muhitda tarbiyalanayotgan ICHBning sog‘lom bolalar tomonidan qanchalik qabul qilinishini matematik tarzda ko‘rsatib beradi. Shuningdek, bolaning o‘z-o‘zini baholash darajasini aniqlash uchun "Dembo-Rubinshteyn" metodikasidan foydalaniladi.

Individual Ta’lim Dasturlarini (ITD) modellashtirish:

Tadqiqot doirasida har bir o‘quvchi uchun individual pedagogik model yaratiladi. ITD tuzishda "SWOT-tahlil" (Kuchli taraflar, Zaif taraflar, Imkoniyatlar va To‘siqlar) metodidan foydalaniladi. Bu usul bolaning jismoniy nuqsonini emas, balki uning saqlanib qolgan imkoniyatlarini (masalan, yaxshi xotira, badiiy qobiliyat) birinchi o‘ringa olib chiqish imkonini beradi.Tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar majmuasi imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’lim muhitiga moslashtirish jarayonini tizimli o‘rganish imkonini berdi. Tanlangan metodologiya nafaqat miqdoriy ko‘rsatkichlarni to‘plash, balki har bir bolaning individual rivojlanish trayektoriyasini sifat jihatidan tahlil qilishga xizmat qildi. Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlarning ishonchliligi kross-tahlil va matematik-statistik qayta ishlash usullari orqali tasdiqlandi. Ushbu metodologik yondashuv inklyuziv tarbiya samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish uchun zarur empirik bazani shakllantirdi.

NATIJALAR.

Inklyuziv ta’lim jarayonida imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash o‘ziga xos murakkab pedagogik tizimni tashkil etadi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, bunday bolalarni sog‘lom tengdoshlari muhitiga jalb etish ularning nafaqat bilim olishiga, balki jamiyatning faol a’zosi sifatida

ISSN 3030-3907

shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonda har bir bolaning jismoniy va ruhiy holatidan kelib chiqqan holda maxsus yondashuvlar qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega.

Nuqson turlariga ko‘ra o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari:

Tayanch-harakat a’zolari buzilgan bolalar: Ushbu toifadagi bolalarni o‘qitishda asosiy e’tibor jismoniy to‘siqlarni bartaraf etishga va ularning harakatlanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratiladi. Amaliyotda bunday o‘quvchilar uchun dars jarayonida maxsus raqamli texnologiyalar, ovozli buyruqlar va interaktiv vositalardan foydalanish yuqori samara beradi. Bu ularning yozma topshiriqlarni bajarishdagi qiyinchiliklarini yengishga va darsda mustaqil faoliyat yuritishiga imkon yaratadi.

Sensor (eshitish va ko‘rish) nuqsonli bolalar: Ko‘rish va eshitish qobiliyati cheklangan bolalar uchun axborotni qabul qilishning muqobil yo‘llari ishlab chiqiladi. Eshitishida muammosi bor o‘quvchilar uchun dars materiallari ko‘proq vizual ko‘rinishda (grafiklar, suratlar, subtitrli videolar) taqdim etilsa, ko‘rishida nuqsoni bor bolalar uchun audio-materiallar va taktil (teginish orqali his qilinadigan) vositalardan foydalaniladi. Bunday yondashuv bolaning sezgi a’zolari orqali atrofdagi ma’lumotlarni to‘liqroq anglashiga yordam beradi.

Nutqiy nuqsonlar va autizm spektri buzilishlari:Inklyuziv ta’lim jarayonida imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash o‘ziga xos murakkab pedagogik tizimni tashkil etadi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, bunday bolalarni sog‘lom tengdoshlari muhitiga jalb etish ularning nafaqat bilim olishiga, balki jamiyatning faol a’zosi sifatida shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonda har bir bolaning jismoniy va ruhiy holatidan kelib chiqqan holda maxsus yondashuvlar qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega.

Nuqson turlariga ko‘ra o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari:

Tayanch-harakat a’zolari buzilgan bolalar: Ushbu toifadagi bolalarni o‘qitishda asosiy e’tibor jismoniy to‘siqlarni bartaraf etishga va ularning harakatlanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratiladi. Amaliyotda bunday o‘quvchilar uchun dars jarayonida maxsus raqamli texnologiyalar, ovozli buyruqlar va interaktiv vositalardan foydalanish yuqori samara beradi. Bu ularning yozma topshiriqlarni bajarishdagi qiyinchiliklarini yengishga va darsda mustaqil faoliyat yuritishiga imkon yaratadi.

Sensor (eshitish va ko‘rish) nuqsonli bolalar: Ko‘rish va eshitish qobiliyati cheklangan bolalar uchun axborotni qabul qilishning muqobil yo‘llari ishlab chiqiladi. Eshitishida muammosi bor o‘quvchilar uchun dars materiallari ko‘proq vizual ko‘rinishda (grafiklar, suratlar, subtitrli videolar) taqdim etilsa, ko‘rishida nuqsoni bor bolalar uchun audio-materiallar va taktil (teginish orqali his

ISSN 3030-3907

qilinadigan) vositalardan foydalaniladi. Bunday yondashuv bolaning sezgi a’zolari orqali atrofdagi ma’lumotlarni to‘liqroq anglashiga yordam beradi.

Nutqiy nuqsonlar va autizm spektri buzilishlari: Nutqida nuqsoni bor bolalarni o‘qitishda logopedik mashg‘ulotlar dars jarayoni bilan uyg‘unlashtiriladi. Autizm alomatlari bo‘lgan bolalar uchun esa "vizual rejalashtirish" usuli qo‘llaniladi. Ya’ni dars jarayoni aniq piktogrammalar va rasmlar orqali bosqichma-bosqich ko‘rsatiladi. Bu boladagi kutilmagan hayajon va qo‘rquv hissini kamaytirib, uning diqqatini jamlashiga va jamoaga moslashishiga xizmat qiladi.

Tashkiliy-metodik yondashuvlar:

Inklyuziv tarbiya jarayonida tutor (yordamchi o‘qituvchi) faoliyati hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tutor bola va o‘qituvchi o‘rtasida "ko‘prik" vazifasini o‘tab, o‘quvchining darsdagi individual topshiriqlarni tushunishiga ko‘maklashadi. Shuningdek, bolalarni baholashda ularning shaxsiy yutuqlari va kichik qadamlari birinchi o‘ringa qo‘yiladi.Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv asosda o‘qitish jarayoni ularning ruhiy barqarorligini ta’minlaydi va o‘zlariga bo‘lgan ishonchni shakllantiradi. Sog‘lom tengdoshlari bilan doimiy muloqotda bo‘lish esa ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirib, kelajakda mustaqil hayot kechirishlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.Inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati nafaqat maktab muhiti va pedagogik mahoratga, balki oila va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi tizimli hamkorlikka ham bevosita bog‘liqdir. Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalashda ota-onalar asosiy hamkor va bolaning shaxsiy rivojlanishidagi eng yaqin ko‘makchi sifatida ko‘riladi. Oila muhiti bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi shakllanadigan va maktabda olgan bilim-ko‘nikmalari amaliyotda mustahkamlanadigan asosiy maskandir.

Inklyuziv o‘qitish natijasida bolalarda nafaqat o‘quv fanlarini o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari yaxshilanadi, balki eng muhimi – ijtimoiy muloqot va mustaqil faoliyat yuritish ko‘nikmalari shakllanadi. Erishilgan natijalar ta’lim muassasasi, maxsus pedagoglar va ota-onalar o‘rtasidagi uzviy hamkorlik inklyuziv tarbiyaning muvaffaqiyatini ta’minlovchi asosiy omil ekanligini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA.

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’lim muhitida tarbiyalash jarayonini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu tizim shunchaki ta’limiy model emas, balki chuqur ijtimoiy transformatsiya jarayonidir. Yuqorida keltirilgan natijalar inklyuziv muhitning bolalar psixologiyasiga ijobiy ta’sirini tasdiqlasa-da, amaliyotda bir qator tizimli muammolar hamon saqlanib qolmoqda.

Muhokama qilinishi lozim bo‘lgan eng muhim jihat — bu umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining maxsus pedagogik tayyorgarligi darajasidir. Ko‘pgina pedagoglar inklyuziv sinflarda dars o‘tishda metodik "bo‘shliq"ga duch

ISSN 3030-3907

kelishmoqda. Masalan, autizm yoki og‘ir nutqiy nuqsoni bor bola bilan ishlashda o‘qituvchi nafaqat fanni bilishi, balki defektologiya va psixologiya elementlarini ham amalda qo‘llay olishi shart. Bu borada o‘qituvchilarning malakasini oshirish tizimini qayta ko‘rib chiqish, ularga ICHB bilan ishlashda amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatuvchi qisqa muddatli kurslar emas, balki fundamental tayyorgarlik zarurligini ko‘rsatadi.Ijtimoiy stereotiplar va psixologik to‘siqlar.Inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati jamiyatning ma’naviy yetukligiga bevosita bog‘liq. Kuzatuvlarimiz shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom bolalar va ularning ota-onalari o‘rtasida hamon ICHB o‘quvchilariga nisbatan "tibbiy cheklanganlik" tamoyili ustuvorlik qilmoqda. Muhokama jarayonida shuni ta’kidlash joizki, haqiqiy inklyuziya — bu sog‘lom bolalarning ICHB bilan birga o‘sishi orqali bag‘rikenglikni o‘rganishi demakdir. Agar sog‘lom bola yoshligidanoq o‘zidan farq qiladigan tengdoshi bilan muloqot qilsa, kelajakda jamiyatda nogironligi bor shaxslarga nisbatan kamsitish holatlari kamayadi.

Metodik yutuqlarga qaramay, maktablarning jismoniy holati (panduslar, maxsus liftlar, sanitar-gigiyenik sharoitlar) inklyuziyani to‘liq amalga oshirishga imkon bermayapti. Ayniqsa, sensor nuqsoni bor bolalar uchun darsliklarning yetishmasligi ularni dars jarayonida chetda qolib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli, maktablarni "to‘siqsiz muhit"ga aylantirish masalasi shunchaki qurilish ishi emas, balki bolaning ta’lim olish huquqini ta’minlovchi pedagogik zaruriyat sifatida ko‘rilishi kerak.

Inklyuziv ta‘lim — bu uzoq davom etadigan va barcha tomonlarning (davlat, maktab, oila) hamjihatligini talab qiluvchi jarayon. Faqatgina qonuniy bazani yaratish kifoya emas, balki har bir maktabda inklyuziv madaniyatni shakllantirish, o‘qituvchiga tutor yordamini berish va ota-onalar bilan uzviy muloqotni yo‘lga qo‘yish lozim. Shundagina biz imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatning to‘laqonli, mustaqil va baxtli a’zosi sifatida tarbiyalashga erishamiz.

XULOSA.

2. Nurilloyev Z.I., Shoymardonov R.A., Vinogradova V.I. Reaksiya sitizina s aromaticheskimi aldegidami, Akademik S.Yu.Yuunusov xotirasiga bag‘ishlangan yosh olimlar ilmiy anjumanining dasturi va ma'ruzalarining qisqa mazmuni, Toshkent, 2005 yil 18 mart, 81-b.

3. Raximov Sh.B., Mirzaeva X.M., Hamdamov J.R., Vinogradova V.I. Novie proizvodnie sitizina, Akademik S.Yu.Yunusov xotirasiga bag‘ishlangan yosh olimlar ilmiy anjumanining dasturi va ma'ruzalarning qisqa mazmuni, Toshkent, 2014 yil 18 mart, 117-b.

4. Шоймардонов Р.А., Искандаров С., Юнусов С.Ю. Синтез N – замещенных фосфорпроизводных цитизина //Химия природн. соед.,1971.№ 12. С. 383.

5. Nurilloev Z. I. Study of the mechanism for insuring the surface of St20 steel with synthesized corrosion inhibitors // Development of science and technology” scientific and technical journal. – 2022. – T. 2. – P. 45-50.

ISSN 3030-3907

6. Zafar Nurilloev, Beknazarov Khasan, and Nomozov Abror. "Production of corrosion inhibitors based on crotonaldehyde and their inhibitory properties." International Journal of Engineering Trends and Technology 70.8 (2022). (Scopus)

ISSN 3030-3907

UDK 378.16:004(045)

DASTURLASH TILLARI KURSIDA "TESKARI DARS" (FLIPPED CLASSROOM) METODINING O‘RNI

Temirova Sevinch Omonjon qizi
Namangan davlat universiteti magistranti
ORCID:0009-0006-8041-6605
E-mail: sevinchtemirova0306@gmail.com
Otaxanov Nurillo Abdumalikovich
Namangan davlat universiteti professori, DSc

Annotatsiya. Ushbu maqola dasturlash tillari kursida "Teskari dars" (Flipped Classroom – FC) metodini qo‘llashning bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rnini nazariy va qiyosiy tahlil asosida o‘rganadi. Tadqiqot 2012–2024 yillar oralig‘ida nashr etilgan 30 dan ortiq xalqaro va mahalliy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish metodologiyasiga asoslanadi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, FC metodi dasturlash kurslarida algoritmik tafakkurni, mustaqil o‘rganish qobiliyatini va kasbiy pedagogik ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Maqola O‘zbekiston oliy pedagogik ta'lim muassasalarida FC metodini joriy etishning nazariy asoslarini mustahkamlashga va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Teskari dars, Flipped Classroom, dasturlash tillari, informatika o‘qituvchisi, pedagogik mazmun bilimi, faol o‘qitish, B.Blum taksonomiyasi, qiyosiy tahlil.

Abstract. This article examines the role of the Flipped Classroom (FC) method in programming language courses in shaping the knowledge and skills of prospective informatics teachers through theoretical and comparative analysis. The study relies on a systematic review of over 30 international and local scholarly publications from 2012–2024. Works by Jumaniyozova (2023), Bergmann and Sams (2012), Lo and Hew (2017), Thai et al. (2017) are compared to discuss FC's comparative advantages, its distinctive features in programming education, and its role in developing Pedagogical Content Knowledge (PCK). The analysis demonstrates that FC holds significant value in fostering algorithmic thinking, self-directed learning, and professional pedagogical competencies. The article aims to consolidate theoretical foundations for integrating FC in higher pedagogical institutions in Uzbekistan.

Keywords: Flipped Classroom, programming languages, informatics teacher training, pedagogical content knowledge, active learning, blended learning, Bloom's taxonomy, comparative analysis.

ISSN 3030-3907

Аннотация. В данной статье на основе теоретического и сравнительного анализа исследуется роль метода «Перевернутый класс» (ПК) в курсе языков программирования в формировании знаний и навыков будущих преподавателей информатики. Исследование основано на методологии систематического анализа более 30 международных и отечественных работ, опубликованных в 2012–2024 годах. Анализ показывает, что методы ПК играют важную роль в развитии алгоритмического мышления, навыков самостоятельного обучения и профессионально-педагогических навыков в курсах программирования. Статья служит для укрепления теоретических основ внедрения метода ПК в высших педагогических учебных заведениях Узбекистана и разработки практических рекомендаций.

Ключевые слова: Перевернутый класс, языки программирования, преподаватель информатики, содержание педагогики, активное обучение, таксономия Блума, сравнительный анализ.

KIRISH.

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi an'anaviy o‘qitish modellarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623-son qarori pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ustuvor vazifa sifatida belgilagan. "Raqamli O‘zbekiston 2030" dasturi esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng joriy etishni maqsad qilib qo‘yadi. Ushbu siyosiy kontekstda informatika o‘qituvchilarini tayyorlash dasturlari o‘ziga xos ikki tomonlama vazifani bajarishi zarur: bo‘lajak o‘qituvchilar nafaqat dasturlash bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishlari, balki ushbu bilimlarni ta'lim amaliyotida samarali etkazib bera olishlari ham lozim.

TADQIQOTNING ILMIY YANGILIGI: O‘zbekiston oliy ta'lim kontekstida, xususan bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlashga mo‘ljallangan dasturlash tillari kursida FC metodining qo‘llanilishi birinchi marta tizimli va qiyosiy tahlil asosida o‘rganilmoqda. Xalqaro meta-analitik tadqiqotlar (Laag va Saele, 2019; Lo va Hew, 2017) va mahalliy empirik izlanishlar (Jumaniyozova, 2023; Mamarajabov, 2022) sintezi asosida O‘zbekiston pedagogik ta'limi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu yo‘nalishda mahalliy ilmiy adabiyotda empirik tadqiqotlar hali yetarli bo‘lmaganligini hisobga olib, mazkur maqola kelajakdagi eksperimental izlanishlar uchun nazariy asos va metodologik yo‘nalish sifatida xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907

ADABIYOTLAR TAHLILI. L. W. Anderson va D. R. Krathwohl, A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives; J. Bergmann va A. Sams, Flip your classroom: Reach every student in every class every day; J. L. Bishop va M. A. Verleger, The flipped classroom: A survey of the research; E. L. Deci va R. M. Ryan, Intrinsic motivation and self-determination in human behavior; M. T. Jumaniyozova, Oliy ta'lim jarayonida Flipped Classroom texnikasidan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari; M. J. Lage, G. J. Platt va M. Treglia, Inverting the classroom: A gateway to creating an inclusive learning environment.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu tadqiqotda adabiyotlarni tizimli ko‘rib chiqish (systematic review) metodi asosiy yondashuv sifatida qo‘llanildi: 2012–2024 yillar oralig‘ida Scopus, Web of Science, Google Scholar va mahalliy ilmiy bazalardan tanlangan 30 dan ortiq manba o‘rganildi. Manbalar mazmunini chuqur o‘rganish maqsadida tahlil metodi, FC va an'anaviy o‘qitish o‘rtasidagi farqlarni aniqlashda esa qiyosiy tahlil metodi qo‘llanildi. Bundan tashqari, nazariy umumlashtirish va klassifikatsiya metodlari yordamida tadqiqot natijalari tizimli tartibga keltirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Tarixiy rivojlanish. FC metodining ilk ko‘rinishlari 2000 yilga borib taqaladi. Lage, Platt va Treglia (2000) iqtisodiyot kurslarida ma'ruzani auditoriyadan tashqariga ko‘chirish tajribasini nashr etdi. 2007 yilda Jonathan Bergmann va Aaron Sams Colorado shtatida videolashtirish orqali darsni o‘tkazib yuborgan talabalar uchun material tayyorlashni boshladilar — bu FC metodini dunyoga tanishtirdi (Bergmann va Sams, 2012). Salman Xanning Khan Academy platformasi "masofadan qisqa ma'ruzani ko‘rish, darsda esa amaliyot" prinsipini yanada kuchaytirdi. O‘zbekistonda ilmiy qiziqish 2020 yillardan kuchaydi: Jumaniyozova (2023) va Mamarajabov (2022) mahalliy kontekstdagi dastlabki ilmiy tahlillarni o‘tkazdilar.

FC VA AN'ANAVIY O‘QITISH: QIYOSIY TAHLIL

FC metodi va an'anaviy o‘qitishning asosiy farqlarini tushunish uchun quyidagi jadvalga murojaat qilish maqsadga muvofiq:

1-jadval.

FC metodi va an'anaviy o‘qitishning qiyosiy tahlili

Mezon	An'anaviy o‘qitish	FC metodi
Yangi material	Dars vaqtida o‘qituvchi tushuntiradi	Darsdan oldin video/matn orqali talaba mustaqil o‘rganadi

ISSN 3030-3907

Mezon	An'anaviy o‘qitish	FC metodi
Dars vaqti	Asosan ma'ruza va tushuntirishga sarflanadi	Amaliy mashq, hamkorlik, muammoli topshiriqlarga bag‘ishlanadi
O‘qituvchi roli	"Sahnadagi donishmand" — bilim uzatuvchi	"Yon tomondagi yo‘l-yo‘riq" — faoliyatni boshqaruvchi
Talaba roli	Passiv qabul qiluvchi	Faol ishtirokchi va o‘rganish jarayoni subyekti
Sur'at	Barcha uchun bir xil sur'at	Individual sur'atda o‘rganish imkoni
Qayta ko‘rish	Imkonsiz	Video yozuvni istalgan vaqt qayta ko‘rish mumkin
Kuchsiz talaba	Darsda qolib ketadi	Uyda ko‘proq vaqt sarflash, darsda yordam olish mumkin
Blum taksonomiyasi	Yuqori bosqichlar uyda, yordamsiz	Yuqori bosqichlar darsda, o‘qituvchi yordamida

Jadvaldan ko‘rinib turganidek, an'anaviy modelda kognitiv talabi yuqori bo‘lgan amaliy ishlar talabalar uyda — o‘qituvchi yordamisiz — bajaradi. Bu dasturlash kabi predmetlarda ayniqsa salbiy ta'sir ko‘rsatadi, chunki kod yozish jarayonida darhol fikr-mulohaza (feedback) olish zaruriyati juda yuqori (Lo va Hew, 2017). FC esa bu muammoni bartaraf etib, amaliy topshiriqlarni sinf muhitiga ko‘chiradi.

Dasturlash ta'limining o‘ziga xos talablari.

Dasturlash tillari kurslari bir qator jihatdan boshqa nazariy fanlardan farq qiladi: kodlash — protsedural ko‘nikma bo‘lib, takroriy mashq talab qiladi; har bir yangi kontsepsiya (sikllar, rekursiya, ob'ektga yo‘naltirilgan dasturlash) oldingi materialni puxta o‘zlashtirishga asoslanadi; xato topib tuzatish (debugging) mustaqil amaliyot paytida darhol yordam bo‘lmasa cheksiz vaqt olishi mumkin. FC esa amaliy topshiriqlarni sinf muhitiga ko‘chiradi — bu dasturlash kurslariga ayniqsa mos keladi.

ISSN 3030-3907

Dasturlash kurslarida samarali FC uch fazali tsikl asosida quriladi: (1) Darsdan oldingi faza — 10–15 daqiqalik video ma'ruza, izohli kod namunalari, qisqa tekshiruv testi. (2) Dars ichidagi faza — juft dasturlash (pair programming), debugging musobaqa, guruh algoritm dizayni, tengdoshlarni o‘qitish mashqlari. (3) Darsdan keyingi faza — aks ettiruvchi kundalik, onlayn judge platformasi orqali kodlash topshiriqlari.

Bo‘lajak informatika o‘qituvchilari uchun FC ning qo‘shimcha kasbiy afzalligi mavjud: FC darsining jamoaviy muhokama va tengdoshlarni o‘qitish elementlari ularga kasbiy ta'lim tajribasini beradi. Bu Shulman (1986) va Mishra va Koehler (2006) asoslashtirgan PCK kontseptsiyasiga mos keladi: pedagogik ko‘nikmalar passiv kuzatish emas, faol ishtirok orqali shakllanadi.

QIYOSIY TAHLIL: O‘ZBEKISTON KONTEKSTI

Jumaniyozova (2023)ning "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" jurnalida nashr etilgan maqolasi O‘zbekiston kontekstida FC metodining dastlabki ilmiy tahlillaridan biri hisoblanadi. Muallif FC ni masofaviy ta'limdan farqli ekanligini alohida ta'kidlaydi: o‘qituvchi va talabaning "yuzma-yuz" dars vaqti o‘zgarishsiz qoladi, faqat uning mazmuni tubdan o‘zgaradi. Bu O‘zbekiston oliy ta'lim amaliyotida pedagogik nazorat va o‘qituvchi-talaba munosabatlarining saqlanishi zaruriyatini hisobga olganda ayniqsa muhim fikr. Jumaniyozova SMS (Content Management System) va LMS (Learning Management System), podcast va vodcast texnologiyalari hamda Google Classroom platformasidan foydalanishning muhimligini ham ko‘rsatib bergan.

Biroq mahalliy adabiyotda FC metodini dasturlash ta'limida bo‘lajak informatika o‘qituvchilari bilan sinovdan o‘tkazgan empirik tadqiqotlar hali yetarli emas. Bu bo‘shliq kelajakdagi tadqiqotlar uchun dolzarb yo‘nalishni belgilaydi. Xalqaro adabiyot bilan mahalliy tajribani solishtirganda quyidagi umumiy va o‘ziga xos jihatlar namoyon bo‘ladi:

2-jadval.

Xalqaro va mahalliy tadqiqotlar qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkich	Xalqaro tadqiqotlar	O‘zbekiston tadqiqotlari
Tadqiqot turi	Eksperimental va meta-analitik	Asosan tavsifiy va nazariy
Maqsadli guruh	STEM talabalar, o‘qituvchilar	Oliy ta'lim talabalari, til o‘qituvchilari

ISSN 3030-3907

Ko‘rsatkich	Xalqaro tadqiqotlar	O‘zbekiston tadqiqotlari
Texnologik asos	LMS, YouTube, Moodle, Coursera	Moodle, Google Classroom, Telegram
Asosiy to‘siq	Texnik bilim, talaba tayyorligi	Raqamli infratuzilma, didaktik material
PCK rivojlanishi	Chuqur o‘rganilgan	Kam tadqiq etilgan
Dasturlash kurslari	Ko‘p tadqiqot bor	Deyarli tadqiq etilmagan

Jadvaldan ko‘rinib turganidek, O‘zbekiston kontekstida, xususan informatika o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha dasturlash kurslarida FC metodini qo‘llash bo‘yicha empirik tadqiqotlar jiddiy kamchilik sezilmoqda. Lo va Hew (2017) o‘tish davrida talabalarning mustaqil o‘rganishga tayyorligi va texnologik infratuzilma kritik omillar ekanligini ko‘rsatadi — bu O‘zbekiston uchun ham dolzarb muammo.

MUHOKAMA. Ko‘rib chiqilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, FC metodining dasturlash kurslaridagi afzalliklari bir necha asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, amaliy ko‘nikmalar rivojlanishi: sinf vaqtini debug sessiyalari, juft dasturlash va muammoli topshiriqlarga bag‘ishlash novice dasturchilarning protsedural bilimni mustahkamlashida an'anaviy uy vazifalari tizimiga nisbatan samaraliroq. Bu Lo va Hew (2017), Thai va boshqalar (2017), shuningdek Jumaniyozova (2023) tomonidan ham tasdiqlangan xulosaga mos keladi.

Ikkinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilar uchun qo‘shimcha kasbiy afzallik mavjud: FC darsining jamoaviy muhokama va tengdoshlarni o‘qitish elementlari ular uchun kasbiy ta'lim tajribasiga aylanadi. Bu Shulman (1986) va Mishra va Koehler (2006) ishlarida asoslangan PCK kontseptsiyasiga mos keladi: pedagogik ko‘nikmalar passiv kuzatish emas, faol ishtirok orqali shakllanadi.

Uchinchidan, moslashuvchanlik: Jumaniyozova (2023) ta'kidlaganidek, FC "o‘qituvchining kamroq gapirish vaqti" qoidasiga juda mos keladi va darslarni xilma-xil qilishni istagan o‘qituvchi uchun samarali vosita. O‘zbekiston kontekstida Moodle LMS allaqachon ko‘plab universitetlarda mavjud bo‘lganligi ushbu texnologik yondashuvni joriy etish uchun qulay asos yaratadi.

ISSN 3030-3907

XULOSA. Ko‘rib chiqilgan nazariy va empirik adabiyotlarning tizimli tahlili shuni ko‘rsatadiki, FC metodi dasturlash tillari kursida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga an'anaviy o‘qitish modeliga nisbatan qator sezilarli afzalliklarni taklif etadi. Algoritmik tafakkur va amaliy kodlash ko‘nikmalarini sinf muhitida hamkorlikda mashq qilish, pedagogik mazmun bilimini tengdoshlarni o‘qitish orqali shakllantirish va talabalarning individual sur'atini qo‘llab-quvvatlash ushbu metodning asosiy kuchli tomonlari hisoblanadi. FC metodi nafaqat talabaning shaxsiy rivojlanishi, balki bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy shakllanishi uchun ham kuchli vosita ekanligini adabiyotlar tasdiqlaydi.

Ushbu tahlil asosida O‘zbekiston universitetlari uchun quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi: (1) dasturlash kurslaridan birida FC modelini bir semestr davomida sinab ko‘rish va natijalarni qayd etish; (2) har bir mavzu uchun Blum taksonomiyasiga asoslangan video ma'ruza va tekshiruv testlarini tayyorlash; (3) dars vaqtining asosiy qismini juft dasturlash va debugging mashqlariga bag‘ishlash; (4) birinchi haftalarda scaffold materiallar bilan talabalarni mustaqil o‘qitishga yo‘naltirish; (5) FC va an'anaviy o‘qitishni nazorat guruhi bilan solishtiruvchi kvazi-eksperimental tadqiqot o‘tkazish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives. Longman.
2. Bergmann, J., & Sams, A. (2012). Flip your classroom: Reach every student in every class every day. ISTE and ASCD. 124 p.
3. Bishop, J. L., & Verleger, M. A. (2013). The flipped classroom: A survey of the research. Proceedings of the 120th ASEE Annual Conference & Exposition, Paper 6219.
4. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). Intrinsic motivation and self-determination in human behavior. Springer.
5. Jumaniyozova, M. T. (2023). Oliy ta'lim jarayonida Flipped Classroom texnikasidan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, №5, 148–153. ISSN 2181-1709.
7. Lage, M. J., Platt, G. J., & Treglia, M. (2000). Inverting the classroom: A gateway to creating an inclusive learning environment. Journal of Economic Education, 31(1), 30–43.
8. Laag, T., & Saele, R. G. (2019). Does the flipped classroom improve student learning and satisfaction? A systematic review and meta-analysis. AERA Open, 5(3), 1–17.

ISSN 3030-3907

9. Lo, C. K., & Hew, K. F. (2017). A critical review of flipped classroom challenges in K-12 education: Possible solutions and recommendations for future research. Research and Practice in Technology Enhanced Learning, 12(1), 4.
10. Mamarajabov, M. E. (2022). Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish. DSc dissertatsiyasi. Toshkent. 309 bet.
11. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054.
12. Shulman, L. S. (1986). Those who understand: Knowledge growth in teaching. Educational Researcher, 15(2), 4–14.
13. Thai, N. T. T., De Wever, B., & Valcke, M. (2017). The impact of a flipped classroom design on learning performance in higher education. Computers & Education, 107, 113–126.
14. Tucker, B. (2012). The flipped classroom. Education Next, 12(1), 82–83.
15. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.
16. Zainuddin, Z., & Halili, S. H. (2016). Flipped classroom research and trends from different fields of study. International Review of Research in Open and Distributed Learning, 17(3), 313–340.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi «Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4623-son qarori. https://lex.uz/docs/4749364

ISSN 3030-3907

TALABALARNING HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA O‘QUV AMALIYOTI JARAYONIDA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH

Nigmatjonov Sardor Abdumannobovich
QXMITI, tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada talabalarning hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlash masalalari, ayniqsa o‘quv amaliyoti jarayonida xavfsizlikni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari keng tahlil qilinadi. Zamonaviy ishlab chiqarish muhitida texnologik jarayonlarning murakkablashuvi, yangi turdagi xavf-xatarlarning paydo bo‘lishi hamda inson omilining dolzarbligi talabalarni xavfsizlik madaniyatiga ega bo‘lgan mutaxassis sifatida tayyorlash zaruratini kuchaytirmoqda. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv va tajriba-sinov metodlari qo‘llanildi. Natijalar talabalar xavfsizlik kompetensiyalarini shakllantirishda integrativ yondashuv muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: hayot faoliyati xavfsizligi, o‘quv amaliyoti, ishlab chiqarish xavfsizligi, xavf-xatar, xavfsizlik madaniyati, pedagogik texnologiyalar, kasbiy tayyorgarlik.

Аннотация. В данной научной статье всесторонне анализируются вопросы обеспечения безопасности жизнедеятельности студентов, в частности, теоретические и практические аспекты организации безопасности во время производственной практики. Сложность технологических процессов в современной производственной среде, появление новых видов рисков и актуальность человеческого фактора повышают потребность в подготовке студентов как специалистов с культурой безопасности. В исследовании использованы системный подход, сравнительный анализ, педагогическое наблюдение и методы экспериментального тестирования. Результаты показывают важность интегративного подхода в формировании компетенций студентов в области безопасности.

Ключевые слова: безопасность жизнедеятельности, производственная практика, безопасность производства, риски, культура безопасности, педагогические технологии, профессиональная подготовка.

Abstract. This scientific article comprehensively analyzes the issues of ensuring the safety of students' life activities, especially the theoretical and practical aspects of organizing safety during training practice. The complexity of technological processes in a modern production environment, the emergence of new types of risks, and the relevance of the human factor increase the need to train students as specialists with a safety culture. The study used a systematic approach, comparative analysis, pedagogical observation, and experimental testing methods. The results

ISSN 3030-3907

show the importance of an integrative approach in the formation of students' safety competencies.

Keywords: life activities safety, training practice, production safety, risks, safety culture, pedagogical technologies, professional training.

KIRISH.

Bugungi kunda global industrial rivojlanish va raqamli transformatsiya sharoitida ishlab chiqarish tizimlari sezilarli darajada murakkablashmoqda. Bu esa nafaqat texnik, balki inson omiliga bog‘liq xavflarning ham ortishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun o‘quv amaliyoti jarayoni real ishlab chiqarish muhitiga moslashuvning muhim bosqichi hisoblanadi. Shu jarayonda talabalar ko‘plab yangi texnik vositalar, mexanizmlar va texnologik jarayonlar bilan to‘qnash keladi. Bu esa o‘z navbatida xavfsizlik qoidalariga qat’iy rioya qilishni talab etadi. Talabalar hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlash nafaqat ularning sog‘ligi va hayotini himoya qilish, balki kelajak kasbiy faoliyatida xavfsiz ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ham zarurdir. Mazkur muammo pedagogika, psixologiya va texnika fanlari kesishgan nuqtada joylashgan bo‘lib, kompleks yondashuvni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Talabalarning hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlash masalasi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda kompleks va ko‘p qirrali muammo sifatida yoritilgan. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda ushbu yo‘nalish ko‘proq “safety culture”, “occupational safety”, “risk management in education” tushunchalari orqali o‘rganiladi. Tadqiqotchilar xavfsizlikni ta’minlashni faqat texnik yoki me’yoriy talablar bilan cheklab bo‘lmasligini, balki inson omili, xulq-atvor va pedagogik yondashuvlar bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydilar.

Zamonaviy tadqiqotlarda xavfsizlik madaniyati tushunchasi alohida e’tiborga olinadi. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xavfsizlikni ta’minlashda tizimli yondashuv, muntazam treninglar va profilaktik chora-tadbirlar muhim ekani qayd etilgan. Ayniqsa, yosh mutaxassislar va talabalar uchun xavfsizlik kompetensiyalarini shakllantirish uzoq muddatli ijobiy natijalar berishi ta’kidlanadi.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlarida va milliy tadqiqotlarda esa hayot faoliyati xavfsizligi ko‘proq pedagogik va kasbiy tayyorgarlik nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Ushbu ishlarda o‘quv amaliyoti jarayonida xavfsizlikni ta’minlash uchun o‘qituvchi va ishlab chiqarish mutaxassislarining hamkorligi muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. Shuningdek, interaktiv metodlar, amaliy

ISSN 3030-3907

mashg‘ulotlar va texnologik vositalardan foydalanish orqali talabalar xavfsizlik ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligi asoslab berilgan.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalar hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlash masalasi ko‘p fanlar kesishgan nuqtada joylashgan bo‘lib, uni samarali hal etish uchun pedagogik, psixologik va texnik yondashuvlarning integratsiyasi zarur.

METODOLOGIYA.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, xalqaro va milliy me’yoriy hujjatlarni o‘rganish, kuzatuv, suhbat va so‘rovnoma usullaridan foydalanildi. Shuningdek, ayrim oliy ta’lim muassasalarida o‘quv amaliyoti jarayonida talabalar faoliyati monitoring qilindi. Ularning xavfsizlikka oid bilim darajasi, amaliy ko‘nikmalari va xulq-atvori o‘rganildi. Tajriba-sinov ishlari orqali interaktiv metodlar, simulyatsiya mashg‘ulotlari va treninglarning samaradorligi aniqlashtirildi. Olingan ma’lumotlar qiyosiy tahlil asosida umumlashtirildi.

TADQIQOT NATIJALARI.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar xavfsizlik bo‘yicha nazariy bilimlarga ega bo‘lsalar-da, amaliy vaziyatlarda ularni qo‘llashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish muhitida tezkor qaror qabul qilish, xavfni oldindan aniqlash va uni bartaraf etish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatildi. Shu bilan birga, xavfsizlik instruktajlari ko‘pincha formal tarzda o‘tkazilishi, talabalar tomonidan yetarli darajada anglab yetilmasligi ham muammo sifatida aniqlangan. Interaktiv metodlar, jumladan, rolli o‘yinlar, keys-stadi, virtual simulyatsiyalar va amaliy treninglar talabalar xavfsizlik kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Shuningdek, mentorlik tizimini joriy etish, ya’ni tajribali mutaxassislarni talabalar bilan bevosita ishlashga jalb qilish ijobiy natija berishi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari yanada chuqur tahlil qilinganda, talabalar hayot faoliyati xavfsizligi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar darajasi turli ko‘rsatkichlar asosida baholandi. Ayniqsa, nazariy bilim va amaliy qo‘llash o‘rtasida sezilarli tafovut mavjudligi aniqlandi. Quyidagi jadvalda tadqiqot natijalari umumlashtirilgan holda keltiriladi:

1-Jadval

Ko‘rsatkichlar	Yuqori daraja (%)	O‘rta daraja (%)	Past daraja (%)
Nazariy bilimlar (xavfsizlik qoidalari)	68	22	10
Amaliy ko‘nikmalar (real vaziyatda qo‘llash)	41	37	22

ISSN 3030-3907

Xavfni oldindan aniqlash qobiliyati	35	40	25
Tezkor qaror qabul qilish	38	34	28
Xavfsizlikka ongli munosabat	52	30	18

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, talabalar orasida nazariy bilimlar nisbatan yuqori darajada shakllangan bo‘lsa-da, ularni amaliyotda qo‘llash darajasi ancha past ko‘rsatkichlarni tashkil etmoqda. Bu holat ta’lim jarayonida nazariy tayyorgarlik ustunlik qilayotgani, biroq amaliy mashg‘ulotlar yetarli darajada samarali tashkil etilmayotganini ko‘rsatadi. Xususan, xavfni oldindan aniqlash va tezkor qaror qabul qilish kabi muhim kompetensiyalar bo‘yicha past natijalar talabalarni real ishlab chiqarish sharoitlariga tayyorlashda muammolar mavjudligini anglatadi. Shu bilan birga, xavfsizlikka ongli munosabat nisbatan yuqori bo‘lsa-da, bu ko‘rsatkich ham yetarli darajada barqaror emas. Bu esa talabalar xavfsizlik qoidalarini bilishiga qaramay, har doim ham ularga amal qilmasligini ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, interaktiv metodlar asosida o‘qitilgan guruhlarda yuqoridagi ko‘rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilangan. Masalan, simulyatsiya va keys-stadi asosida o‘tilgan mashg‘ulotlardan so‘ng talabalar orasida amaliy ko‘nikmalar darajasi 20–25% ga oshgani kuzatildi.

Umuman olganda, natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalar hayot faoliyati xavfsizligini samarali shakllantirish uchun ta’lim jarayonida amaliy yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirish, real vaziyatlarga asoslangan mashg‘ulotlar sonini oshirish va xavfsizlikni faqat nazariy emas, balki kompetensiyaviy darajada o‘rgatish zarur.

MUHOKAMA.

Olingan natijalar asosida aytish mumkinki, talabalar hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlash faqat texnik choralar bilan cheklanmasligi kerak. Bu jarayon pedagogik jihatdan ham to‘g‘ri tashkil etilishi zarur. Xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda o‘qituvchi va ishlab chiqarish rahbarlarining roli muhimdir. Ular nafaqat bilim beruvchi, balki namunaviy xulq ko‘rsatuvchi shaxs sifatida ham faoliyat yuritishi kerak. Shuningdek, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash, raqamli vositalardan foydalanish va real vaziyatlarga yaqinlashtirilgan mashg‘ulotlar tashkil etish orqali xavfsizlikni ta’minlash samaradorligini oshirish mumkin. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, xavfsizlik madaniyatini erta bosqichdan shakllantirish kelajakdagi ishlab chiqarish jarayonlarida baxtsiz hodisalar sonini sezilarli darajada kamaytiradi.

ISSN 3030-3907

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlash zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘quv amaliyoti jarayonida xavfsizlikni samarali tashkil etish uchun nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish va ishlab chiqarish bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu esa kelajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini oshirish bilan birga, ularning xavfsiz faoliyat yuritish madaniyatini ham shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduqodirov, A. (2020). Pedagogik texnologiyalar va ularning amaliyoti. Toshkent.
2. Bakoeva, G. M. (2023). Peculiarities of the current situation of the banking IPO market. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 78-81).
3. International Labour Organization. (2019). Safety and Health at the Heart of the Future of Work. Geneva.
4. Karimov, I. (2017). Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi. Toshkent.
5. World Health Organization. (2020). Occupational Health and Safety Practices. Geneva.
6. Zokirov, Q. (2018). Hayot faoliyati xavfsizligi asoslari. Toshkent.
7. Рахматов, Ф. О., & Нуриев, К. К. (2022). Исследование плодов дыни как объекта технической переработки. Илмий мақолалар тўплами, 330.
8. Нуриев, К. К., Рахматов, О., Кадирова, Р. С., & Рахматов, О. О. (2015). Биоконверсия органических отходов растительного происхождения в условиях Узбекистана. In Проблемы рекультивации отходов быта, промышленного и сельскохозяйственного производства (pp. 468-470).
9. Sharipova, U. A. (2023). The Use of Competitor Analysis as A Factor of Increasing the Competitiveness of the Company. American Journal of Business Management, Economics, and Banking, 13, 90-92.
10. Рахматов, О. О., Рахматов, О., Нуриев, К. К., & Тўхтамишев, С. С. (2019). Мини технологическая линия по безотходной переработке плодов дыни. In вклад университетской аграрной науки в инновационное развитие агропромышленного комплекса (pp. 332-337).
11. Rakhimov, B. S., Sobirova, Q. Q., & Rahimova, F. B. (2018). Development of algorithms spectral analysis of medical signals on the polynomial walsh bases. г. г. Уфа, 38-39.
12. Хакимов, М. Р. (2020). Development of innovative technologies in the system of higher education of the republic of Uzbekistan. Re-health journal, (2-2), 163-164.

ISSN 3030-3907

13. Mekhrojovna, D. S., & Aragón, M. D. M. M. (2025). The green zone: lexical, phraseological, and cultural perspectives. EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements, 1(5), 193-196.
14. Shavkatova, G. (2024). Stage expression of fairy tales in the school program in theaters of young audiences. European Journal of Arts, (3), 87-91.
15. Кенжебаева, Г. М., & Уразбаева, Д. (2017). Возможности технологий запоминания в обучении иностранному языку. In Педагогические знания в системе высшей школы (pp. 61-64).
16. Xakimov, M., & Maffei, S. (2022). Integrated learning technology. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(4), 704-708.
17. Sharipova, U. A. (2023). Features of the development of internet marketing at the present stage. World Economics and Finance Bulletin, 23, 90-91.

ISSN 3030-3907

MAKTAB O‘QUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASHINI KIMYOVIY EKSPERIMENT O‘TKAZISH ORQALI SHAKLLANTIRISH

Y.F. Toshtemirova
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston
L.Q. Ablakulov
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston
S.M. Ochilova
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston
N.B. Baxramov
EMU University, Toshkent, O‘zbekiston
D.B. Zuhriddinova
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston
E-mail: monokop91@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola maktab o‘quvchilarida boshlang‘ich sinflardan yuqori sinflargacha tanqidiy fikrlash qobiliyatini kimyoviy eksperimentlar o‘tkazish jarayoni orqali rivojlantirishning nazariy asoslari amaliy mexanizmlari ilmiy dalillari va pedagogik tavsiyalarini chuqur yoritadi. Tanqidiy fikrlash ma’lumotlarni talqin qilish tahlil qilish baholash xulosa chiqarish izoh berish va o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyati sifatida ko‘rib chiqiladi. Kimyoviy eksperimentlar inquiry-based learning va problem-based learning tamoyillariga asoslanib o‘quvchilarni ilmiy usul bosqichlari orqali faol ishtirok etishga undaydi. Maqolada tanqidiy fikrlashning psixologik-pedagogik modellari kimyoviy eksperimentlarning maktab ta’limidagi o‘rni va ilmiy tadqiqotlar natijalari batafsil tahlil qilinadi. Ilmiy dalillar shuni ko‘rsatadiki muntazam kimyoviy eksperimentlar tanqidiy fikrlash ko‘rsatkichlarini o‘rtacha 30-50% ga oshiradi ilmiy savodxonlik va muammo yechish ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Amaliy qismda maktab laboratoriyasi sharoitida xavfsiz 50 dan ortiq eksperimentning batafsil tavsifi dars rejalari va baholash rubrikalari keltirilgan

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash kimyoviy eksperiment inquiry-based learning problem-based learning maktab kimyosi ilmiy usul O‘zbekiston ta’limi virtual laboratoriya STEM.

Аннотация. В данной статье представлен углубленный обзор теоретических основ, практических механизмов, научных данных и педагогических рекомендаций по развитию навыков критического мышления у школьников начальной и старших классов посредством проведения химических экспериментов. Критическое мышление рассматривается как способность интерпретировать, анализировать, оценивать, делать выводы, давать объяснения и осуществлять самоконтроль. Химические эксперименты,

ISSN 3030-3907

основанные на принципах исследовательского и проблемно-ориентированного обучения, побуждают учащихся к активному участию в этапах научного метода. В статье подробно анализируются психолого-педагогические модели критического мышления, роль химических экспериментов в школьном образовании и результаты научных исследований. Научные данные показывают, что регулярные химические эксперименты повышают показатели критического мышления в среднем на 30-50%, укрепляют научную грамотность и навыки решения проблем. Практическая часть включает подробное описание более 50 безопасных экспериментов в условиях школьной лаборатории, планы уроков и оценочные критерии.

Ключевые слова: критическое мышление, химический эксперимент, исследовательское обучение, проблемно-ориентированное обучение, школьная химия, научный метод, образование в Узбекистане, виртуальная лаборатория, STEM.

Abstract. This article provides an in-depth review of the theoretical foundations, practical mechanisms, scientific evidence and pedagogical recommendations for developing critical thinking skills in schoolchildren from primary to higher grades through the process of conducting chemical experiments. Critical thinking is considered as the ability to interpret, analyze, evaluate, draw conclusions, provide explanations and self-control. Chemical experiments, based on the principles of inquiry-based learning and problem-based learning, encourage students to actively participate in the stages of the scientific method. The article analyzes in detail the psychological and pedagogical models of critical thinking, the role of chemical experiments in school education and the results of scientific research. Scientific evidence shows that regular chemical experiments increase critical thinking indicators by an average of 30-50%, strengthen scientific literacy and problem-solving skills. The practical part includes detailed descriptions of more than 50 safe experiments in a school laboratory setting, lesson plans, and assessment rubrics.

Keywords: critical thinking, chemical experiment, inquiry-based learning, problem-based learning, school chemistry, scientific method, education in Uzbekistan, virtual laboratory, STEM.

KIRISH.

Zamonaviy jamiyatda tanqidiy fikrlash XXI asrning asosiy kompetensiyalaridan biri sifatida qaraladi. Jahon Iqtisodiy Forumi 2023 yil hisobotida 2030 yilga borib tanqidiy fikrlash va murakkab muammolarni hal qilish ko‘nikmalari birinchi o‘rinlarda turishi ta’kidlangan. O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston 2030 strategiyasi va Prezident farmonlari ta’lim tizimida tanqidiy

ISSN 3030-3907

fikrlashni rivojlantirishni milliy ustuvor vazifa qilib belgilagan. PISA va TIMSS xalqaro baholash natijalari o‘zbekistonlik o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha dalillarga asoslangan xulosa chiqarish va muammolarni tahlil qilish qobiliyati hali yetarli emasligini ko‘rsatmoqda [1].

Kimyoviy eksperimentlar tanqidiy fikrlashni shakllantirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. An’anaviy darslarda o‘quvchilar ko‘pincha tayyor ma’lumotlarni yodlab oladilar ammo eksperiment jarayoni ularni faol kuzatuvchi tadqiqotchi va tahlilchi sifatida ishtirok etishga majbur qiladi. Masalan ochiq muammo shaklidagi vazifa qanday qilib eritmaning konsentratsiyasini aniqlash mumkin degan savol o‘quvchini gipoteza qo‘yish tajriba rejalashtirish natijalarni o‘lchash xatolarni tahlil qilish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarishga undaydi. Bu jarayon tanqidiy fikrlashning asosiy komponentlarini to‘liq faollashtiradi va o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi [2-3].

Kirish qismida tanqidiy fikrlashning psixologik modellari kimyoning maktab kursidagi o‘rni xavfsizlik qoidalari va virtual laboratoriyalarning afzalliklari keng yoritiladi. Statistik ma’lumotlar shuni tasdiqlaydiki inquiry-based kimyo eksperimentlari tanqidiy fikrlashni o‘rtacha 0.68 effekt o‘lchovi bilan oshiradi. O‘zbekiston kontekstida yangi darsliklar STEAM integratsiyasi va raqamli resurslar ushbu yondashuvni yanada dolzarb qilmoqda. Shuningdek kirish qismida maktab o‘quvchilarining yosh xususiyatlari hisobga olinib boshlang‘ich sinflarda oddiy kuzatish va sodda reaksiyalar o‘rta sinflarda gipoteza va tahlil yuqori sinflarda murakkab tajribalar va xulosalar bosqichlari tavsiya etiladi [4-7].

1. Tanqidiy fikrlash va kimyoviy eksperimentning nazariy asoslari

Tanqidiy fikrlash tushunchasi pedagogika va psixologiyada uzoq tarixga ega. Facione 1990 yilda o‘tkazgan Delphi tadqiqotida tanqidiy fikrlashning oltita asosiy komponenti aniqlangan talqin qilish tahlil qilish baholash xulosa chiqarish izoh berish va o‘z-o‘zini nazorat qilish. Bu komponentlar kimyoviy eksperiment jarayonida to‘liq namoyon bo‘ladi. Masalan eritma rangining o‘zgarishini kuzatganda o‘quvchi ma’lumotlarni talqin qiladi reaksiya tezligini o‘lchaganda tahlil qiladi natijalarni boshqa guruh natijalari bilan solishtirganda baholaydi va xulosani dalillar bilan asoslaydi.

Ennis 2011 yilda taklif qilgan modelda tanqidiy fikrlashni ochiq fikrlash va yopiq fikrlashga bo‘lish mumkin. Kimyoviy eksperimentlarda ochiq fikrlash gipoteza qo‘yish va yangi savollar berish orqali rivojlanadi yopiq fikrlash esa aniq protseduralarni bajarish va natijalarni tekshirish orqali shakllanadi. Halpern modeli esa tanqidiy fikrlashni o‘rgatish uchun to‘rt bosqichli yondashuvni tavsiya qiladi tanqidiy fikrlashni aniqlash baholash va qo‘llash. Bu bosqichlar kimyoviy laboratoriya darslarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishi mumkin.

ISSN 3030-3907

Ilmiy usulning klassik besh bosqichi kuzatish gipoteza tajriba ma’lumotlar tahlili va xulosa kimyoviy eksperimentlarning asosini tashkil etadi. Antonio 2024 yilda o‘tkazgan meta-tahlilda inquiry-based yondashuvlar fan darslarida higher-order thinking skills ni oshirishi isbotlangan effekt o‘lchovi 0.68 ga teng. Bu natija 32 ta tadqiqotni qamrab olgan bo‘lib maktab o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashning sezilarli o‘sishini ko‘rsatadi.

Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi bo‘yicha o‘qituvchi yoki tengdosh yordami bilan bajariladigan eksperimentlar o‘quvchining tanqidiy fikrlashini tezroq rivojlantiradi. Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlariga ko‘ra o‘rta sinf o‘quvchilari uchun konkret operatsiyalar bosqichida sodda reaksiyalar yuqori sinflarda esa abstrakt fikrlash talab qiladigan murakkab tajribalar mos keladi. Bloom taksonomiyasining yuqori darajalari tahlil baholash va yaratish kimyoviy eksperimentlarda to‘liq faollashadi.

O‘zbekiston pedagogikasida tanqidiy fikrlash masalalari milliy dasturlarda alohida o‘rin egallaydi. Yangi davlat ta’lim standartlarida tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quvchilarning ilmiy usulni qo‘llash ko‘nikmasi majburiy talab sifatida belgilangan. Bolta M.G. va Murodova S.B. ning ishlarida virtual laboratoriyalardan foydalanish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali ekanligi ko‘rsatilgan.

Reja 1 da yana quyidagilar chuqur yoritiladi tanqidiy fikrlashni bostiruvchi omillar an’anaviy o‘qitishdagi bitta to‘g‘ri javobga yo‘naltirish xato qilishdan qo‘rqish va vaqt cheklovi. Kimyoviy eksperimentlar bu to‘siqlarni bartaraf etadi chunki ular ochiq muammolarni taklif qiladi va xatoni o‘rganish imkoniyati sifatida ko‘rsatadi. Har bir nazariya uchun O‘zbekiston maktablari sharoitiga moslashtirilgan 10 dan ortiq amaliy misol keltirilgan.

2. Maktab ta’limida kimyoviy eksperimentlar orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirish strategiyalari

Bo‘lim maktab laboratoriyasi sharoitida xavfsiz bajariladigan eksperimentlarning batafsil tavsifini o‘z ichiga oladi. Har bir eksperiment uchun quyidagi struktura qo‘llaniladi maqsad zarur materiallar xavfsizlik qoidalari bosqichma-bosqich bajarish tartibi tanqidiy fikrlash savollari kutilayotgan natijalar va baholash rubrikasi.

Birinchi eksperiment Qizil karamdan pH indikatori tayyorlash. Maqsad kislotali va ishqoriy muhitni aniqlash orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. Materiallar qizil karam suv idishlar turli moddalar sirka soda limonad. Xavfsizlik qoidalari issiq suv bilan ishlashda ehtiyot bo‘lish. Bosqichlar karamni maydalash qaynoq suv quyish filtrlash va sinov eritmalariga qo‘shish. Tanqidiy fikrlash savollari Nima uchun rang o‘zgardi Qanday modda kuchliroq kislota ekanligini qanday aniqlash mumkin Natijangizni boshqa guruh natijasi bilan solishtirsangiz

ISSN 3030-3907

nima xulosa chiqarish mumkin. Kutilayotgan natija turli ranglar paydo bo‘lishi. Baholash rubrikasi gipoteza 20 foiz kuzatish 30 foiz tahlil 30 foiz xulosa 20 foiz.

Ikkinchi eksperiment Pishirish sodasi va sirka reaksiyasi. Maqsad gaz ajralishi reaksiyasini kuzatish orqali tezlik va omillarni tahlil qilish. Materiallar soda sirka shisha ballon. Bosqichlar aralashtirish gaz hajmini o‘lchash harorat va konsentratsiyani o‘zgartirib tajriba takrorlash. Tanqidiy fikrlash savollari Qanday omil reaksiya tezligini oshirdi Xatolik qayerdan kelib chiqishi mumkin Natijani grafik shaklida ifodalasangiz nima ko‘rinadi.

Uchinchi eksperiment Kristallanish jarayoni. Maqsad eritmaning to‘yinganligini va kristall shakllanishini tahlil qilish. Materiallar osh tuzi yoki mis sulfati issiq suv. Bosqichlar to‘yingan eritma tayyorlash sovutish va kristallarni kuzatish. Tanqidiy fikrlash savollari Nima uchun kristallar hosil bo‘ldi Harorat o‘zgarishi qanday ta’sir qildi.

3. Ilmiy tadqiqotlar baholash usullari va amaliy tavsiyalar

Bo‘limda 15 dan ortiq xalqaro va milliy tadqiqot natijalari chuqur tahlil qilinadi. Antonio 2024 meta-tahlili inquiry-based yondashuvlarning higher-order thinking ga ta’sirini tasdiqlaydi. Qing 2010 yilgi ishda task-based kimyo eksperimentlari tanqidiy fikrlashni sezilarli oshirgan. Orosz 2023 yilgi tadqiqotida guided inquiry 9-sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni kuchaytirgani ko‘rsatilgan. O‘zbekistonlik mualliflar Murodova va Bolta ishlarida virtual laboratoriyalarning samaradorligi isbotlangan.

Baholash vositalari Cornell Critical Thinking Test moslashtirilgan varianti portfel usuli rubrikalar va pre-post testlar batafsil tavsiflanadi. O‘zbekiston tajribasida mavjud to‘siqlar resurs yetishmasligi xavfsizlik muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari muhokama qilinadi. O‘qituvchilar uchun trening dasturlari ota-onalar ishtiroki va kelajak istiqbollari AI yordamida virtual eksperimentlar yoritiladi.

XULOSA.

Maktab o‘quvchilarining tanqidiy fikrlashini kimyoviy eksperiment o‘tkazish orqali shakllantirish zamonaviy ta’limning eng samarali yo‘llaridan biridir. Nazariy asoslar amaliy misollar va ilmiy dalillar shuni tasdiqlaydiki muntazam eksperimentlar orqali tanqidiy fikrlash ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshadi. O‘quvchilar ilmiy dunyoqarashga ega bo‘lib hayotiy muammolarni hal qila oladigan shaxsga aylanadi. Har bir kimyo o‘qituvchisi bugundan boshlab oddiy ochiq eksperiment bilan ishni boshlashi mumkin. Natijada O‘zbekistonning kelajak avlodi tanqidiy fikrlaydigan innovatsion va raqobatbardosh bo‘ladi. Ushbu maqola amaliy qo‘llanma sifatida xizmat qiladi va yangi tadqiqotlar uchun asos yaratadi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023. PF-158-son Farmon O‘zbekiston - 2030 strategiyasi to‘g‘risida. Lex.uz.
2. Antonio R. P. 2024. Effects of Inquiry-Based Approaches on Students’ Higher-Order Thinking Skills in Science A Meta-Analysis. ERIC EJ1408841.
3. Qing Z. 2010. Developing critical thinking disposition by task-based learning in chemistry experiment teaching. Procedia Social and Behavioral Sciences.
4. Murodova S. B. 2025. Kimyoni o‘qitish jarayonida virtual laboratoriyadan foydalanish. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali.
5. Bolta M. G. 2023. O‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi fan o‘quv materialini ilmiy yondashuv asosida o‘rganish. Ta’lim fidoyilari.
6. Facione P. A. 1990. Critical Thinking A Statement of Expert Consensus. The Delphi Report.
7. Orosz G. 2023. Guided inquiry-based learning in secondary-school chemistry classes. RSC Publishing.

ISSN 3030-3907

UCH FAZALI ASINXRON DVIGATELDAGI NOSOZLIKLARNI DIAGNOSTIKA QILISH METODLARINING TAHLILI.

Ramazonov Bahodir G‘olib o‘g‘li
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, assistent;
E-mail: bahodirmagistr2021@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat korxonalaridagi elektr jihozlarining ishonchliligini ularda vujudga kelgan nosozliklarni diagnostika qilish tizimlarini joriy etish orqali oshirish bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqiladi. Uch fazali asinxron elektr motorlarining nosozliklarini diagnostika qilish uchun apparat va dasturiy ta'minot tizimi taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: diagnostika, apparat va dasturiy ta'minot tizimi, elektr motorining nosozliklari, tebranish diagnostikasi, garmonikalar, analog-raqamli o`zgartirgich.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы повышения надежности электрооборудования на промышленных предприятиях путем внедрения систем диагностики возникающих в нем неисправностей. Предложена аппаратно-программная система диагностики неисправностей трехфазных асинхронных электродвигателей.

Ключевые слова: диагностика, аппаратно-программная система, неисправности электродвигателей, вибрационная диагностика, гармоники, аналого-цифровой преобразователь.

Abstract. This article considers issues related to increasing the reliability of electrical equipment in industrial enterprises by introducing systems for diagnosing malfunctions that occur in them. A hardware and software system for diagnosing malfunctions of three-phase asynchronous electric motors is proposed.


Keywords: diagnostics, hardware and software system, electric motor malfunctions, vibration diagnostics, harmonics, analog-to-digital converter.

KIRISH.

Sanoat elektr uskunalarining ishonchli va xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun elektr uskunaning barcha komponentlarini muvofiqlashtirilgan va ishonchli ishlashi talab qilinadi. Bunga erishish uchun zamonaviy texnik diagnostika usullari va vositalaridan foydalangan holda intellektual diagnostika tizimini ishlab chiqish zarur. Taklif qilinayotgan tizimni ishlab chiqishning asosiy maqsadi elektr uskunalarining ishlash samaradorligini oshirish va uni diagnostika qilish imkoniyatini yaratishdir.[1]

Elektr motorlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning tasnifi 1-rasmda keltirilgan.

ISSN 3030-3907



1-rasm.Elektr dvigatellarni samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar

Vazifalarni funktsional diagramma tuzish, elektr motorining texnik holatini diagnostika qilish uchun apparat va dasturiy ta'minot tizimini ishlab chiqish, elektr motorining murakkab ko‘p parametrli diagnostikasi algoritmlari, elektr motorlarining texnik holatini baholash va uch fazali asinxron elektr motorlarining nosozliklarini bartaraf etish orqali hal qilish mumkin.[2,3]

Diagnostika vositalari, usullari va algoritmlarini ishlab chiqishda identifikatsiya, kompyuter modellashtirish, dasturlash va noaniq mantiq nazariyasi, ishonchlilik, texnik diagnostika va prognozlash usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.[4]

Проведённый анализ показал, что цифровизация преподавания инженерной графики оказывает заметное влияние как на качественные, так и на организационные показатели учебного процесса. Одним из наиболее значимых параметров выступает трудоёмкость выполнения графических заданий в зависимости от уровня их сложности. При традиционном подходе усложнение задания, как правило, сопровождается непропорциональным ростом времени выполнения, поскольку студенту приходится многократно повторять однотипные операции вручную, заново перестраивать отдельные элементы и тратить дополнительные усилия на исправление неточностей.

В цифровой среде зависимость времени выполнения от сложности задания сохраняется, однако её характер становится более управляемым. На начальных этапах преимущества могут быть не столь выраженными, поскольку часть времени расходуется на освоение интерфейса и логики программной среды. Тем не менее по мере усложнения заданий преимущества цифрового подхода становятся очевидными: ускоряется редактирование, упрощается масштабирование, быстрее создаются повторяющиеся элементы, удобнее работать с размерами, слоями и параметрами модели. Особенно заметен этот эффект при выполнении комплексных заданий, включающих построение нескольких взаимосвязанных изображений и создание трёхмерной модели.

Аналитическая диаграмма, сопровождающая данный раздел, показывает, что при росте сложности учебного задания преимущество цифрового подхода в затратах времени становится всё более выраженным.

Ещё одним важным результатом является формирование профессионально значимых компетенций. Цифровое обучение инженерной графике должно приводить не просто к освоению конкретной программы, а к развитию комплекса умений, необходимых в будущей инженерной деятельности.

Особую роль играет связь инженерной графики с последующими дисциплинами профессионального цикла. Если студент уже на этапе графической подготовки привыкает воспринимать цифровую модель как рабочий инструмент, ему легче осваивать машиноведение, детали машин, технологическое проектирование, архитектурное моделирование и конструкторскую подготовку. В этом случае инженерная графика выполняет не только учебную, но и интегративную функцию, обеспечивая преемственность между фундаментальными и специальными дисциплинами.

Обсуждение результатов позволяет отметить и мотивационный эффект цифровой среды. Работа с современными программными средствами

ISSN 3030-3907

воспринимается студентами как более близкая к реальной практике, что повышает интерес к дисциплине и способствует более активному включению в учебный процесс. На рисунке 3 приведена аналитическая диаграмма, показывающая, что по мере роста сложности задания преимущество цифрового подхода в затратах времени становится всё более очевидным. Для учебного процесса это означает возможность либо сократить время на рутинные операции, либо перераспределить его в пользу анализа конструкции, обсуждения ошибок и развития проектного мышления.




Рисунок 2 — Зависимость времени выполнения графических заданий от уровня сложности

Формирование профессиональных компетенций

Результатом цифрового обучения инженерной графике должно быть не просто владение отдельной программой, а формирование комплекса профессионально значимых компетенций. К ним относятся умение читать и создавать техническую документацию, анализировать форму детали, моделировать объект, использовать стандартные средства цифрового проектирования, контролировать точность и структуру файла, а также представлять результаты работы в форме, пригодной для дальнейшей проектной коммуникации.

Если студент уже на этапе инженерной графики привыкает к цифровой модели как к рабочему инструменту, ему легче осваивать машиноведение, детали машин, проектирование технологических процессов, архитектурное моделирование, конструкторскую подготовку и другие дисциплины

ISSN 3030-3907

профессионального цикла. В этом смысле инженерная графика выполняет интегративную функцию в структуре подготовки специалиста [9].

Таблица 3

Связь цифровых инструментов с формируемыми компетенциями

Цифровой инструмент	Вид деятельности	Формируемая компетенция
2D CAD	Построение видов, разрезов, сечений, размерное оформление	Точность графического изображения и документации
3D моделирование	Создание объемной геометрии, параметризация, визуализация	Пространственное мышление и конструктивный анализ
Электронные библиотеки элементов	Использование стандартных объектов и шаблонов	Навыки стандартизации и инженерной культуры
Файловая организация проекта	Работа со слоями, именованием, версиями и форматами	Цифровая грамотность и проектная дисциплина

Ограничения и методические риски

Несмотря на очевидные преимущества цифровизации, абсолютизация программных средств может привести к ряду методических проблем. Во-первых, существует риск подмены инженерного анализа операционной активностью: студент быстро осваивает кнопки и команды, но слабо понимает, почему изображение строится именно так. Во-вторых, при избыточной опоре на готовые шаблоны и автоматические функции может снижаться внимание к стандартам и внутренней логике построения. В-третьих, часть студентов на начальном этапе испытывает дополнительные затруднения, связанные не с графическим содержанием, а с интерфейсом программы.

Иными словами, эффективная цифровизация инженерной графики требует педагогического баланса. Технология становится образовательным ресурсом только тогда, когда она встроена в логичную и содержательно обоснованную систему обучения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ.

Проведённый анализ показывает, что преподавание инженерной и компьютерной графики в условиях цифровой трансформации должно строиться как целостная методическая система, объединяющая

ISSN 3030-3907

фундаментальные основы графической подготовки и современные программные средства. Цифровые технологии повышают наглядность обучения, облегчают формирование пространственных представлений, расширяют возможности самостоятельной работы и усиливают профессиональную направленность дисциплины.

Предложенная в статье модель может быть использована при разработке учебных программ, методических указаний, лабораторных и практических занятий по инженерной и компьютерной графике. Дальнейшее развитие данного направления связано с расширением интерактивных учебных ресурсов, внедрением элементов дополненной и виртуальной реальности, а также с интеграцией цифровой графической подготовки в междисциплинарные проектные курсы.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Autodesk. Student and educator access to software and services for educational purposes // Autodesk Education. Official resources.
2. Autodesk. Learning, curricula and professional development resources for students and educators // Autodesk Education. Official resources.
3. Bertoline G.R. Introduction to Graphics Communications for Engineers. 5th ed. New York: McGraw Hill, 2022.
4. Simmons C.H., Maguire D.E., Phelps N. Manual of Engineering Drawing: British and International Standards. 5th ed. Butterworth-Heinemann, 2020.
5. Gindis E.J. Up and Running with AutoCAD 2024: 2D and 3D Drawing, Design and Modeling. 1st ed. Elsevier, 2023.
6. Martín-Gutiérrez J., Saorín J.L., Contero M., Alcañiz M., Pérez-López D.C., Ortega M. Design and validation of an augmented book for spatial abilities development in engineering students // Computers & Graphics. 2010. Vol. 34. No. 1. P. 77–91.
7. Бабанский Ю.К. Методы обучения в современной общеобразовательной школе. М.: Просвещение, 1985. 208 с.
8. Zeid I. Mastering CAD/CAM. New York: McGraw-Hill, 2005.
9. Dilling F., Vogler A. Fostering Spatial Ability Through Computer-Aided Design // Digital Experiences in Mathematics Education. 2021. Vol. 7. P. 264–297.

ISSN 3030-3907

ТОҒЛИ ҲУДУДЛАРДАГИ РУДА КОНЛАРНИ ОЧИҚ – ЕР ОСТИ УСУЛИДА ҚАЗИБ ОЛИШДА КАРЬЕР КОНТУРИДАН ТАШҚАРИДАГИ ЗАҲИРАЛАРНИ ОЧИШНИ ИЛМИЙ БАҲОЛАШ

Мислибаев И.Т.

Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети "Кончилик иши" кафедраси профессори, т.ф.д.

Мутавалиев А.Т.

Тожикистон тоғ-металлургия институти "Фойдали қазилма конларни қазиш" кафедраси мудири, т.ф.н.

Таджиев Ш.Т.

Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети "Кончилик иши" кафедраси доценти, PhD

Саидрахматов Р.М.

Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети "Кончилик иши" кафедраси талабаси.

Толипов С.О.

Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети "Кончилик иши" кафедраси талабаси.

Аннотация. Мақолада Қарақутан конини очиқ-ер ости усулида ўзлаштиришда контурорти заҳираларининг иккита очиш тизими кўриб чиқилган ҳамда илмий жиҳатдан асосланган. Тоғли ҳудудлардаги руда конларининг контурдан ташқари заҳираларини ўзлаштириш карьеранинг қазиб бўлинган бўшлиқларидан фойдаланган ҳолда, рудали зоналарни горизонтал, вертикал ёки қия кон лаҳимлари орқали очишни назарда тутади. Бунда очиқ ва ер ости усулларида қазиб олиш жараёнларидан ҳосил бўладиган юк оқимлари ягона транспорт оқимига бирлаштирилади. Ер ости усулига ўтиш карьерни очиқ усулда қазишнинг сўнгги босқичида амалга оширилиши режалаштирилади. Шу билан бирга, карьера контуридан ташқарида катта ҳажмдаги заҳиралар мавжуд бўлиб, уларни очиқ-ер ости усулида ўзлаштириш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Калит сўзлар: ҳуқуқий захиралар, карер, юк оқими, очилиш, tunnel, кон, уфқ, релеф, хандақ, қиялик, автомагистрал, ортиқча юк, магистрал, мойил рампа.

Аннотация. В статье рассмотрены и научно обоснованы два варианта вскрытия законтурных запасов при освоении месторождения Каракутан открыто-подземным способом. Отработка законтурных запасов нагорных рудных месторождений предусматривает использование выработанного пространства карьера для вскрытия рудных зон горизонтальными, вертикальными или наклонными выработками с объединением грузопотоков

ISSN 3030-3907

открытой и подземной добычи в единый грузопоток. Переход на подземную добычу предполагается на последней стадии доработки карьера открытым способом. В связи с тем, что за контурами карьера остается значительнее запасы, месторождения, которые целесообразно отработать открыто-подземным способом.

Ключевые слова: законтурные запасы, карьер, грузопоток, вскрытие, штольня, горная выработка, горизонт, рельеф, траншея, уклон, трасса, вскрышные породы, ствол, наклонный съезд.

Annotation. The article considers a combined method of mining the Karakutan deposit and substantiates two systems of opening the contiguous reserves by the open-underground method. The development of short-circuit reserves provides for the use of the worked-out space of the quarry for the opening of ore zones by horizontal, vertical or inclined workings with the combination of open and underground mining cargo flows into a single cargo flow. The transition to underground mining is expected at the last stage of completion of the open pit. Due to the fact that there are more reserves behind the contours of the quarry, deposits that it is advisable to work out in an open-underground way.

Keywords: outside-pit reserves, quarry, haulage flow, mine opening, adit, mine working, horizon, relief, trench, slope, route, overburden, shaft, inclined ramp.

КИРИШ.

Очиш, конни саноат миқёсида ўзлаштиришнинг муҳим босқичи ҳисобланади ва ишчи горизонтлар билан кон массасини қабул қилиш пунктлари ўртасидаги кон лаҳимлари мажмуаси ва транспорт коммуникациялари билан характерланади [1, 2, 3]. Танланган очиш схемаси, транспорт тури ва кон массасини ташиш нархини белгилайди. Катта тарқалиш чуқурлигига эга бўлган қия ёки тик-қия жойлашган катта қалинликдаги руда таналарининг кўпчилиги очиқ-ер ости усулида қазиб олинади. Бунда транспорт харажатлари умумий қазиб олиш харажатларининг асосий қисмини ташкил этади [4, 5, 6].

Карьер контури ортидаги заҳираларни очиш учун карьер майдонидан фойдаланиш, рудникни анъанавий усуллар ёрдамида қуриш билан солиштирганда рудникнинг қурилиш муддатини 1-3 йилга қисқартиради ва 7-9% қўшимча фойда олиш имконини бериши [7, 8, 9] исботланган.

Конни қазиб олишнинг ўзига хослиги шундаки, карьернинг контурорти заҳираларини очишнинг асосий лаҳими карьер майдони ҳисобланади. Ёрдамчи (қўшимча) очувчи лаҳим сифатида, бортorти заҳираларини очишда штольнялардан, карьер ости ва бортorти заҳираларини очиш учун карьер

ISSN 3030-3907

тубидан ўтилган қия транспорт съездлари, вертикал ва қия стволлардан фойдаланилади.

Очиқ-ер ости қазиб олиш технологиясини қўллаган ҳолда тоғли ҳудудлардаги конларни очиш бир қатор афзалликларга эга: ўзида мустақил очувчи лаҳимни акс эттирган карьер майдонининг мавжудлиги; кон ишлари таъсири остида массивнинг деформацияланиш жараёнида иштирок этувчи зоналарнинг катталашган ўлчамлари; заҳираларни қазиб олиш бўйича тақсимлашнинг конни қазиб олишни қабул қилинган тартибига боғлиқлиги.

Карьер қазиб олишнинг яқинлиги, очиқ усулда очишнинг асосий схемаси бўйича съезд ўтишдан воз кечиш имконини, блокларни тайёрлаш ва қирқишни сезиларли тарзда соддалаштиради, харажтларни пасайтиради, тоғ жинслари ва рудаларни карьердан чиқариб беришни ташкил этади, ишни якунлашга қадар одамлар ва материалларни етказиш имконини беради.

Вақт етишмовчилиги шароитларида қурилиш муддатини 1-2 йил ва ундан ортиқ муддатга қисқартиришга эришиш, кон-капитал ишларини карьер майдонидан фойдаланган ҳолда ташкил этилганда бошқа қазиб олиш усулига ўтиш туфайли конни қазиб олишда узилиш бўлиш эҳтимолини бартараф этиш мумкин. Ўтиш ишларини карьерда жорий этиш, одатда кетма-кетликда амалга ошириладиган стволларни қуриш ва горизонтал лаҳимларни ўтишни вақт бўйича бирлаштириш имконини беради. Карьер майдонининг мавжудлиги шунингдек, контурорти зоналари блокларида тайёрлаш ва қирқиш ишларини, баъзи ҳолларда эса очиш ишларини ташкил этишни таъминлайди.

Майдончалар (бермалар, съездлар, уларнинг жуфтликлари), дренаж лаҳимларининг (штольнялар, уклонлар, стволлар) мавжудлиги, кон лаҳимларини ўтишдаги қопловчи тоғ жинслари ва тозалаш блокларидан чиқган рудаларни карьерга жойлаштириш имконияти, очишнинг асосий схемаси бўйича ишлар ва олис участкалардаги қазиш ишларига боғлиқ бўлмаганлиги ер ости рудниги горизонтларини қуриш ва контурорти заҳираларини ўзлаштиришнинг қулай шартлари ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ.

Очиқ усулда эксплуатация қилинадиган конни қазиб олиш тажрибаси билан танишиш шуни кўрсатдики, баъзи руда заҳиралари деярли доим карьерларнинг контурлари ташқарисида қолиб кетади. Юқори қиймат ва катта иш ҳажмлари билан улар ер ости усулида қазиб олишга жалб этилади.

Бевосита карьернинг чегара контурига туташган ёки унинг ёнида жойлашган ва ер ости усулида қазиб олишга мўлжалланган заҳиралар, контурорти заҳиралари ҳисобланади. Ушбу заҳираларнинг карьер контури

ISSN 3030-3907

ташқарисида қоладиган улуши, руда танасининг қалинлигига ва очиқ усулда қазиб олишнинг чуқурлигига боғлиқ. Жисмоний ҳажм жиҳатидан, улар сезиларли қийматларга етиши ва ер ости рудникларининг хом-ашё базаси бўлиши мумкин.

Очиқ-ер ости усулида қазиб олинувчи кон заҳираларини таснифлашда, қуйидаги турли таснифлаш белгиларидан фойдаланилади: карьернинг чегаравий контуридан узоқлиги [10], карьер контурига нисбатан жойлашиш жойи [11], заҳираларни қазиб олиш усуллари ва карьер қазишларининг геомеханик таъсири [12].

Қазиб тугатилаётган заҳираларнинг карьер майдонига нисбатан жойлашиши турлича бўлиши мумкинлиги сабабли, очиқ ва ер ости кон ишларининг ўзаро таъсир даражаси бир хил эмас. Ушбу хусусиятни ҳисобга олиш заруратини Д.Р. Каплунов, В.П. Шубодеров ва Д.В. Гординлар кўрсатиб ўтишган [13].

Ушбу белгилар бўйича заҳираларни иккита синф: карьернинг таъсир зонасида жойлашган ва ундан ташқарида жойлашган заҳиралар синфлари бўйича таснифлаш таклифи [14] келтирилган. Биргаликда қазиб олиш варианти учун карьернинг таъсир зонасидаги заҳиралар сақловчи бутунликлар деб аталади. Карьер майдони таъсири чегарасида ер ости кончилик ишларини олиб бориш, ер ости қазиб олиш тизими элементларида ҳам, карьерда ҳам ўзига хос геомеханик жараёнларнинг ривожланиши билан бирга кечади. Бундан ташқари, ушбу заҳираларни алоҳида гуруҳларга ажратиш фойдасига қўшимча далил сифатида юқорида баён этилган омил хизмат қилади. Ушбу участкаларни эксплуатация қилиш, очиқ усулда қазиб олиш технологияси элементларидан фойдаланиш имконияти билан боғлиқ.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ.

Очиқ кончилик ишлари босқичида очиш ишлари, коннинг жойлашиш шароитига боғлиқ ва кон ишлари режимини ва уларнинг иқтисодий самарадорлигини аниқлайди. Шунинг учун, очишни лойиҳалаш мураккаб кўп вариантли комплекс техник-иқтисодий масалани ўзида ифода этади. Бунда кўплаб аниқловчи факторларни миқдорий жиҳатдан ҳисоблаб бўлмайди [15]. Масала техник жиҳатдан мумкин бўлган миқдор ва сифат жиҳатдан баҳолаш йўли орқали ҳал этилади. Дастлаб, бир қатор махсус масалалар умумий комплекс масаладан ажратиб олинади ва ечилади.

Масала тоғ ён бағрида туркумидаги конларнинг характери билан мураккаблашади ва лойиҳалашда масалалар қуйидаги кетма-кетликда ҳал этилади:

ISSN 3030-3907

1. Кўндаланг ва бўйлама профиллар асосида, якуний ёки оралиқ ва истиқболли контурларида каръер плани тузилади. Планга горизонтлар изочизиғи ва жой рельефи киритилади.

2. Юзадаги асосий иншоотларнинг жойлашиши ва трассаларнинг карьерга кириши ўрнатилади.

Шу тариқа, қуйидаги ҳолатлардан келиб чиқиб, очиш усулини танлаш тавсия этилади:

1. Коннинг хусусияти ва уни эксплуатация қилиш шароитига асосланган ҳолда, аниқ қабул қилиниши мумкин бўлмаган ва мантиқий бўлмаган вариантлардан воз кечган ҳолда, техник жиҳатдан мумкин бўлганлари қабул қилинади.

2. Таққосланган вариантларни баҳолашда, бир хил харажатларни ҳисобга олмаган ҳолда, солиштириладиган вариантлар бўйича очиш усулининг капитал ва эксплуатацион харжатларига боғлиқ бўлган ўлчамларга асосий эътибор қаратилади. Умуман олганда қуйидагилар инобатга олинади: очиш ва ер юзсидаги иншоотларни қуриш учун капитал харажатлар; очувчи кон лаҳимларини сақлаб туриш, ер ости ва ер юзасидан юкларни ташиб чиқариш, кўтариш; кон-капитал лаҳимлар руда танасида жойлашганда, рудаларни йўл-йўлакай қазиб олиш ҳисобига капитал харажатларни молиялаштиришни камайтириш.

3. Одатда, муҳим аҳамиятга эга харажатлар ва чиқимлар ҳисобга олинади, майда ва иккинчи даражалилар эса, қиёсий баҳолаш учун аҳамиятсиз сифатида эътиборга олинмайди.

4. Ҳар бир вариант учун ҳисобланган капитал харажатлар ва эксплуатацион чиқимлар жадвалга киритилади ва ± 10%, чегарасида якуний хулосалар учун қабул қилинади, агар фарқ кичикроқ бўлса, вариантлар тенг қийматли деб ҳисобланади.

Тоғ ён бағридаги конларни қазиб олишнинг оптимал вариантини танлашда мезон сифатида 1 тонна фойдали қазилма учун минимал солиштирма харажатлардан фойдаланилади. Очиш вариантларини техник-иқтисодий жиҳатдан баҳолаш қуйидагича аниқланади:

- лойиҳалашнинг ҳар бир қадамида ер ости усулининг ўлчамлари ва заҳираларини аниқлаш;

- товар маҳсулоти, руда ва кон массаси бўйича шахтанинг ишлаб чиқариш қувватини, шунингдек, унинг амал қилиш муддатини лойиҳалашнинг ҳар бир қадамида аниқлаш;

- шахтани шамоллатиш усули ва схемасини танлаш, ер ости иншоотларининг геотермик омили ва қувватини ҳисобга олган ҳолда,

ISSN 3030-3907

лойиҳаланадиган қаватни шамоллатиш учун ҳавонинг солиштирма сарфини аниқлаш;

- кон массасини кўтариш ва шахтага хизмат кўрсатиш учун ер ости иншоотлари комплексини, уларнинг ўлчамларини, ҳажмларини ва қийматини аниқлаш;

- вариантлар бўйича лойиҳанинг график қисмини тузиш;

- ер юзасидаги комплекс, қайта юклаш-бўшатиш пунктлари, уларнинг ҳажмлари ва қиймати;

- очиш усули билан боғлиқ бўлган асосий очувчи ва бошқа капитал лаҳимларнинг параметрлари, ҳажми ва қийматини аниқлаш;

- очиш усули билан боғлиқ бўлган объектлар бўйича капитал қуйилмаларни аниқлаш;

- вариантлар бўйича, қуриш йиллари бўйича капитал қуйилмаларни тақсимлаш;

- тоғ ён бағридаги конларни қазиб олишда эксплуатацион харажатлар вариантлари, яъни, миқдори дастлабки уч турдаги харажатлар йиғиндисининг 15-20% миқдорида олиниши мумкин бўлган харажатлар: асосий фондларнинг амортизацияси, ойлик маоши, электрэнерегияси ва бошқалар бўйича солиштириладиганларини аниқлаш;


- солиштирма харажат ва йиллик иқтисодий самарадорлик бўйича вариантларни баҳолаш;

- келтирилган харажатларни аниқлаш ва уларни вариантлар бўйича баҳолаш.


Тоғ ён бағридаги конларнинг бортorти заҳираларини карьер майдонидан фойдаланган ҳолда ва карьер ости заҳираларни очиш учун карьер майдонидан фойдаланмаган ҳолда очиш (комбинациялашган очиш тизимлари) вариантлари, тозалаш ишлари туфайли юзага келиши мумкин бўлган тоғ жинсларининг силжиш зонасидан ташқарида жойлашган тик стволлар ва қия транспорт съездлари билан очишнинг анъанавий схемасини ўз ичига олади. Бундай ҳолда, руда узатувчи капитал лаҳимлар, руда туширгичлар ва бошқа лаҳимларни ўз ичига олувчи асосий ва ёрдамчи очувчи лаҳимлар комбинациясини қўллаш мумкин (1. а, б - расмлар).

ISSN 3030-3907

а.



б.



а) борторти заҳираларини карьер майдонидан ўтилган штольнялар, карьер ости заҳираларни карьер контуридан ташқарида ўтилган вертикал стволлар билан; б) борторти заҳираларини карьер майдонидан ўтилган штольнялар, карьер ости заҳираларни карьер контуридан ташқарида ўтилган қия транспорт съезди билан очиш

1 - расм. Тоғ ён бағридаги конларнинг борторти заҳираларини карьер майдонидан фойдаланган ҳолда ва карьер ости заҳираларни очиш учун карьер майдонидан фойдаланмаган ҳолда очиш варинтлари

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР.

Қарақутан кони контурорти заҳираларини очиш схемасини танлаш заруриятини асослаймиз. Тоғ ён бағридаги Қаракутан конининг георесурс салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, уни ўзлаштириш стратегиясини ишлаб чиқиш учун асос бўлган.

Тоғ ён бағридаги Қаракутан конини ўзлаштириш стратегиясининг методик асослари қуйидагиларни ўз ичига олади:

ISSN 3030-3907

– автомобил транспорти асосида карьерни 80-100 м чуқурликгача ривожлантириш билан конни очиқ-ер ости усулида қазиб олишни назарда тутувчи технологик стратегия;

– коннинг хом ашё потенциалидан фойдаланишни максимал даражада ошириш схемасига мувофиқ ишлаш учун даромадни кўпайтириш схемаси бўйича карернинг ишлашидан ўтиш шартларини белгилайдиган иқтисодий стратегия;

– қайта ишланган руда таркибини даврий равишда камайтиришни ва илгари истиқболсиз хом ашёни қайта ишлашга жалб қилишни таъминлайдиган хом ашё стратегияси;

Бундай мослашиш имконияти ҳозирги вақтда қазиб олишга жалб қилинмаган олтин рудаларининг муҳим заҳиралари мавжудлигига асосланади. Бундан ташқари, давлат корхонанинг мавжудлигидан манфаатдор, чунки у республикага хорижий валюта манбаи бўлган юқори ликвидли маҳсулотлар ишлаб чиқаради ва минтақанинг ижтимоий барқарорлигини таъминлайди.

Давлат, ҳудуд ва корхона манфаатларидан келиб чиқиб, Қарақутан олтин қазиб олиш конини ўзлаштириш стратегияси таклиф этилган бўлиб, бунда минерал хом ашёни қазиб олишни максимал даражада таъминлаш қуйидагилар натижасида кўзда тутилган:

– карьер борти ортидаги заҳираларни ўзлаштириш учун очиқ – ер ости усулини жорий этиш;

– карьер туби остидаги заҳираларини ер ости усули билан ўзлаштириб тугатиш;

– потенциал ресурслардан фойдаланиш (ишлаб чиқариш чиқиндилари, ер қаридаги паст навли хом ашё ва бошқалар).

Контурорти участкаларни ўзлаштириш, очиқ ва ер ости қазилмалар юк оқимларини битта юк оқимига бирлаштириш билан горизонтал, вертикал ёки қия кон лаҳимлари орқали руда зоналарини очиш учун карьернинг қазиб олинган майдонидан фойдаланишни назарда тутади.

Шу билан бирга, очиқ-ер ости усулда қазиб олиш усулига ўтишнинг шарти, олтин қазиб олишнинг маълум даражадан пастга тушишининг олдини олиш заруратидир. Бунда карьерни очиқ усулда қазиб тугатишнинг охирги босқичида ер ости усулда қазиб олишга ўтиш мулжалланмоқда [16].

Карьер контури ортида аҳамиятга эга бўлган заҳираларнинг қолганлиги сабабли, конни очиқ – ер ости усулида ўзлаштириш мақсадга мувофиқдир.

Очувчи ер ости кон лаҳимлари асосий вазифаси билан биргаликда қуйидаги ёрдамчи вазифалар учун ҳам фойдаланилади: ер ости руднигн

ISSN 3030-3907

вентиляцияси ва шамоллатиш, одамларни, ускуналарни ҳамда материалларни тушуриш-кўтариш.

Шундай қилиб, контурорти заҳираларни ўзлаштиришнинг технологик схемаларини шакллантириш учун асос сифатида очиқ ва ер ости кон ишлари элементларининг қуйидаги қулай комбинацияси олинади:


- транспорт ва очувчи кон лаҳимларидан биргаликда, шунингдек, карьер майдонидан очувчи лаҳимлар сифатида фойдаланиш;

– очиқ ва ер ости кон ишларининг ягона юк оқими [17].

Карьер чегаралари ортида иккита руда зоналари ажратилган: 7 ва 52 руда таналари. Коннинг унумдорлиги йилига 200 – 400 минг тонна рудани даражасида бўлиши мумкин.

Умуман олганда, Қарақутан конини ўзлаштириш бўйича таклиф этилаётган стратегияни амалга ошириш георесурс салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини 85 – 90 % гача оширишни назарда тутади. Қарақутан конини ўзлаштириш стратегиясининг мантиқий давоми кон ишлари технологиясини ўзгарувчан шароитларга мослаштиришнинг умумий стратегиясини ишлаб чиқишдир [18].


Натижада, конни георесурс салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини оширишга қаратилган технологик, техник, иқтисодий ва ресурс тежовчи ўзгаришларни ўзида мужассам этган Қарақутан карьерининг кон комплексини ривожлантириш бўйича очиш схемалари таклиф қилинади (3 ва 4-расмлар).



2 – расм. Карьер майдонидан ўтилган штольнялар ва карьер майдонидан ташқарида ўтилган қия транспорт съезди ёрдамида очиш

ISSN 3030-3907

тизимларини қўллаган ҳолда Қарақутан конининг контурорти заҳираларини очиш схемаси



3 – расм. Карьер майдонидан ўтилган штольнаялар ёрдамида очиш схемаси ва карьер майдонидан ташқарида ўтилган вериткал стволлар ёрдамида очиш схемасини қўллаган ҳолда Қарақутан конининг контурорти заҳираларини очиш схемаси. [20]

Асосий очувчи лаҳим сифатида карьер майдонидан фойдаланиб, карьер майдонидан фойдаланмасдан, шунингдек, борторти ва карьер ости заҳираларини ўзлаштиришнинг комбинациялашган очиш тизими билан, тоғ ён бағридаги Қарақутан кони рельефини ва заҳирларнинг жойлашишини ҳисобга олган ҳолда, очиш тизимининг иккита оптимал варианти танланди.

1 - вариант. Комбинациялашган очиш тизимини қўллаб Қарақутан контурорти (борторти ва карьер ости) заҳираларини очиш схемаси, яъни борторти заҳираларини карьер майдонидан ўтказилган штольнялар билан очиш, карьер ости заҳираларини эса карьер контури ташқарисидан ўтказилган қия транспрт съезди билан очиш (2 - расм).

2 – вариант. Комбинациялашган очиш тизимини қўллаб Қарақутан контурорти (борторти ва карьер ости) заҳираларини очиш схемаси, яъни борторти заҳираларининг бир қисмини карьер майдонидан ўтказилган штольнялар билан, бир қисмини вертикал стволлар билан очиш, карьер ости заҳираларини эса карьер контури ташқарисидан ўтказилган 3 та очувчи вертикал стволлар билан очиш (3 - расм).

ISSN 3030-3907

Биринчи очиш схемаси вариантини қўллаганда қуйидаги асосий кон-капитал ишларни бажариш лозим [19]:

1. Карьер майдонидан, шарқий бортнинг 530,00 м ва ғарбий бортнинг 540,00 м горизонтларидан умумий узунлиги 1500 м бўлган штольняларни ўтказиш;

2. Карьер контури ташқарисидан 540,00 м горизонтдан 240,00 м горизонтгача умумий узунлиги 440 м бўлган қия транспорт съездини ўтказиш;

3. Умумий узунлиги 1090 м бўлган, концетрацион горизонтлардан чиқувчи квершлагларни ўтказиш;

4. Очувчи кон лаҳимлари умумий ҳажмининг 30% ҳажмидаги камерали лаҳимларни ўтказиш;

5. 600,00 м. горизонтдан 420,00 м. горизонтгача шамоллатиш восстаюшийсини ўтказиш.

Ушбу вариантни қўллаганда карьер майдонидан ўтказилган очувчи штольнялар, борторти заҳираси рудаларини узатиш учун, карьер майдони ташқарисидан ўтказилган қия транспорт съезд эса карьер ости заҳираларини ўзлаштириш учун ҳизмат қилади.

Иккинчи очиш схемаси вариантини қўллаганда қуйидаги асосий кон-капитал ишларни бажариш лозим:

1. Карьер майдонидан, шарқий бортнинг 530,00 м ва ғарбий бортнинг 540,00 м горизонтларидан умумий узунлиги 1500 м бўлган штольняларни ўтказиш;

2. Чуқурлиги 359,0 м шарқий, чуқурлиги 427,0 м ғарбий ёрдамчи ва чуқурлиги 329,0 м асосий, учта тик клетли стволларни ўтказиш;

3. Умумий узунлиги 3600 м бўлган, концетрацион горизонтлардан чиқувчи квершлагларни ўтказиш;

4. Очувчи кон лаҳимлари умумий ҳажмининг 30% ҳажмидаги камерали лаҳимларни ўтказиш.

Ушбу вариантни қўллаганда борторти заҳираси рудаларининг бир қисмини узатиш карьер майдонидан ўтказилган очувчи штольнялар орқали амалга оширалади. Борторти заҳирасининг қолган қисми ва карьер ости заҳиралари рудаларини узатиш карьер контури ташқарисида ўтказилаган клетли стволлар орқали амалага оширалади.

Кўриб чиқилаётган вариантлардан оптимал очиш схемасини аниқлаш учун, мавжуд ишлаб чиқилган методика бўйича Microsoft Excel компютер дастуридан фойдаланган ҳолда ҳисоб-китоблар амалга оширилди. Ҳисоблашда борторти ва карьер ости заҳираларни қия транспорт съезди

ISSN 3030-3907

ҳамда карьер контури ташқарисидан ўтказилган 3 та очувчи вертикал стволлар билан очиш олинган. Кон – капитал ишлар ҳажми бўйича ҳисоблаш натижалари 1 ва 2-жадвалларда келтирилган.

1-жадвал

Биринчи вариант учун ҳисоблаш кўрсаткичлари [20]

№	Лаҳимларнинг номи	Ҳажм. м³
Лойиҳавий қувватга эришгунча		
1	+540м горизонт	947,00
2	+530м горизонт	6 382,00
3	Қия транспор съезди ер юзасидан 480м горизонтгача.	7 422,84
4	480м горизонт	33 540,61
5	Марказий шамоллатиш восстаюшийси 480м горизонтдан ер юзасигача	652,80
6	Ён томондаги шамоллатиш ва лифт восстаюшийси 480м горизонтдан ер юзасигача	3 471,00
7	Камерали лаҳимлар ва шу кабилар. -5%	2 254,36
8	**Лойиҳавий қувватга эришгунча, жами:**	**54 670,61**
Лойиҳавий қувватга эришгандан кейин		
1	Қия транспорт съезди 480м гор. дан 420м гор. гача	7 402,33
2	420м горизонт	31 324,73
3	Марказий шамоллатиш восстаюшийси 420 м гор. дан 480м гор. гача	489,60
4	Ён томондаги шамоллатиш ва лифт восстаюшийси 420м гор. дан 480м гор. гача	2 002,50
5	Қия транспорт съезди с гор. 420 гор. дан 360м гор. гача	7 402,33
6	360м горизонт	25 561,24
7	Марказий шамоллатиш восстаюшийси 360м гор. дан 420м гор. гача	489,60
8	Ён томондаги шамоллатиш ва лифт восстаюшийси 420м гор. дан 360м гор. гача	1 562,40
9	Қия транспорт съезди 300м гор. дан 320м гор. гача	2 556,15
10	Қия транспорт съезди 360 гор. дан 300м гор. гача	7 402,33
11	300м горизонт	17 261,89
12	Марказий шамоллатиш восстаюшийси 300м гор. дан 360м гор. гача	489,60

ISSN 3030-3907

13	Ён томондаги шамоллатиш ва лифт восстаюшийси 300м гор. дан 360м гор. гача	1 562,40
14	320м горизонт №7 руда танаси	7 760,23
15	Қия транспорт съезди 300м гор. дан 240м гор. гача	7 402,33
16	240м горизонт	19 665,03
17	Марказий шамоллатиш восстаюшийси 240м гор. дан 300м гор. гача	489,60
18	Ён томондаги шамоллатиш ва лифт восстаюшийси 240м гор. дан 300м гор. гача	1 562,40
19	Камерали лаҳимлар ва шу кабилар -5%	8 022,93
20	**Лойиҳавий қувватга эришгандан кейин, жами:**	**150 409,62**
Кон бўйича жами:		**205 080,23**

2-жадвал

Иккинчи вариант учун ҳисоблаш кўрсаткичлари [20]

№	**Лаҳимларнинг номи**	**Объем. м³**
Лойиҳавий қувватга эришгунча		
1	540м горизонт	947,00
2	530м горизонт	6 382,00
3	Асосий ва ёрдамчи стволлар	34 779,19
4	480м горизонт	33 540,61
5	**Лойиҳавий қувватга эришгунча, жами:**	**75 648,80**
Лойиҳавий қувватга эришгандан кейин		
1	420м горизонт	36 324,73
2	360м горизонт	30 061,24
3	300м горизонт	21 261,89
4	320м горизонт №7 руда танаси	6 979,03
5	240м горизонт	24 237,03
6	**Лойиҳавий қувватга эришгандан кейин, жами:**	**118 863,912**
Кон бўйича жами:		**194 512,71**

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

1. Тоғ ён бағридаги Қорақутан конини қазиб олиш стратегиясини ишлаб чиқишнинг услубий асослари асослаб берилган, шу жумладан фойдани максималлаштириш схемаси бўйича, коннинг хом ашё салоҳиятидан максимал даражада фойдаланиш схемаси бўйича очиқ усулда қазиб олишдан ўтиш шартларини белгиловчи технологик стратегия, иқтисодий стратегия ва хом ашё стратегияси. Бундай мослашиш имконияти

ISSN 3030-3907

ҳозирда қазиб олишда иштирок этмайдиган олтин таркибли рудаларнинг катта заҳиралари мавжудлигига асосланади.

2. Натижада, коннинг георесурс салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини оширишга қаратилган технологик, техник, иқтисодий ва ресурс тежовчи ўзгаришларни ўзида мужассам этган Қорақутан карьерининг кон комплексини ривожлантириш учун очиш схемалари таклиф этилди.

3. Тоғ ён бағридаги Қорақутан конининг контурорти заҳираларини очишнинг комбинациялашган тизими, яъни карьер майдонида ўтказилган штольнялар билан борторти заҳираларини, карьер ости заҳираларини эса карьер контури ташқарисидан ўтказилган қия транспорт съездлар билан очиш ҳамда борторти заҳираларини бир қисмини карьер майдонидан ўтказилган штольнялар билан, карьер ости заҳираларини эса карьер контури ташқарисидан ўтказилган учта вертикал очувчи стволлар билан очиш таққосланган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РУЙХАТИ

1. Chung, J., Asad, M. W. A., & Topal, E. (2022). Timing of transition from open-pit to underground mining: A simultaneous optimisation model. Resources Policy, 77, 102632. https://doi.org/10.1016/j.resourpol.2022.102632

2. Ross, I. T., & Stewart, C. A. (2020). Issues with transitioning from open pits to underground caving mines. In MassMin 2020 Proceedings (pp. 221–238). https://doi.org/10.36487/ACG_repo/2063_11

3. Tadjiev, S., & Sharopov, E. (2024). Assessment and selection of a rational option for the opening of near-contour reserves during open-underground mining of upland deposits. In E3S Web of Conferences (Vol. 525, p. 02004). EDP Sciences.

4. Li, S., Su, W., Yin, T., Dan, Z., & Peng, K. (2025). Research progress and typical case of open-pit to underground mining in China. Applied Sciences, 15(15), 8530. https://doi.org/10.3390/app15158530.

5. Tadjiev, S. (2024). Classification of reserves of upland ore deposits developed by the open-underground method. In E3S Web of Conferences (Vol. 525). EDP Sciences.

6. Chen, S., Zhao, G., & Wang, J. (2023). Geomechanical assessment of crown pillar stability during transition from open-pit to underground mining. International Journal of Mining Science and Technology, 33(1), 123–135.

7. Zhou, Y., Liu, H., & Zhang, W. (2024). Integrated planning for open-pit to underground transition using numerical modelling. Mining Technology, 133(2), 78–92.

8. Jabinpour, A., & Shahriar, K. (2025). Production scheduling for sublevel caving using linear optimization. Journal of Mining and Environment, 16(1), 55–69.

ISSN 3030-3907

9. Badakhshan, N., Afraei, S., & Bakhtavar, E. (2024). Environmental-cost based optimisation of open-pit to underground transition. Resources Policy, 95, 105178.
10. Калмыков В.Н., Рыльникова М.В., Демин С.Б. Обоснование рациональной технологии вскрытия и отработки законтурных запасов карьера // Ресурсосберегающие технологии при подземной отработке полезных ископаемых Севера. – Якутск: ЯНЦ СО АН СССР, 1990. – С. 102-106.
11. Черных А.Д., Брюховецкий О.С, Лосинский А.П. Доработка запасов руд за контурами карьеров с закладкой выработанного пространства // Разработка месторождений твердых полезных ископаемых. Итоги науки и техники. ВИНИТИ АН СССР. – М.: 1987. – 74 с.
12. Каплунов Д.Р., Калмыков В.Н., Рыльникова М.В. Комбинированная геотехнология. – М.: Изд. дом «Руда и металлы», 2003. – 560 с.
13. Каплунов Д.Р., Шубодеров В.И. Перспективы разработки рудных месторождений комбинированным способом // Горный журнал, 1997. – №8. – С. 16-18.
14. Калмыков В.Н., Рыльникова М.В., Демин С.Б. Обоснование рациональной технологии вскрытия и отработки законтурных запасов карьера // Ресурсосберегающие технологии при подземной отработке полезных ископаемых Севера. – Якутск: ЯНЦ СО АН СССР, 1990. – С. 102-106.
15. Караулов Г.А., Гавришев С.Е., Першин Г.Д., Караулов Н.Г. Вскрытие месторождений: Учеб. пособие. – 2-е изд. – Магнитогорск: ГОУ ВПО «МГТУ им. Г.И. Носова», 2006. – 108 с.
16. Трубецкой К.Н. О совместном вскрытии карьерного и шахтного полей при комбинированной разработке месторождений. //Физико-технические проблемы разработки полезных ископаемых. - Новосибирск, 1968. - № 4. - С.58-63.
17. Таджиев, Ш. Т., Назаров, З. С., Жабборов, О. И., & Самадова, Г. М. (2022). Оценка и выбор рационального варианта вскрытия приконтурных запасов при открыто-подземной разработке нагорных месторождений. Universum: технические науки, (9-1 (102)), 39-44.
18. Таджиев, Ш. Т., Назаров, З. С., & Самадова, Г. М. (2022). Классификация систем вскрытия запасов за предельным контуром карьера нагорных месторождений. Academic research in educational sciences, 3(7), 358-365.
19. Самадова, Г. М., Таджиев, Ш. Т., & Куролов, А. А. (2021). Исследование технологических особенностей открыто-подземной разработки нагорных

ISSN 3030-3907

месторождений. In Новые идеи в науках о Земле (pp. 129-132).
20. Таджиев Ш. Т. Тоғ ён бағридаги конларни очиқ-ер ости усулда қазиб олишда контурорти заҳираларини очиш тизимини асослаш: техн. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Навоий, 2022. – 127 б.

ISSN 3030-3907

OZIQ-OVQAT SANOATIDA YARIM TAYYOR MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI

Tuxtaboyev Mohirjon Rahimjanovich
Namangan Davlat Universiteti Biotexnoligiya fakulteti, Biotexnologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
Yunusova Shaxzoda
Biotexnoligiya yo‘nalishi BIOT-AU22-4-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasi kompleks tarzda o‘rganilgan. Tadqiqot doirasida go‘sht, baliq va sabzavotga asoslangan yarim tayyor mahsulotlarning texnologik jarayonlari, ulardagi innovatsion yondashuvlar va sifat ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Eksperimental metod va qiyosiy tahlil asosida Termal konservalash (sterilizatsiya) texnologiyasining an’anaviy usullarga nisbatan samaradorligi 23,4% yuqori ekanligi isbotlangan. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston sharoitida yarim tayyor mahsulotlar sanoatini rivojlantirish uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: yarim tayyor mahsulot, texnologik jarayon, kriogen texnologiya, sifat nazorati, oziq-ovqat sanoati, HACCP.

Аннотация. В данной статье всесторонне изучена технология производства полуфабрикатов. В рамках исследования проанализированы технологические процессы производства полуфабрикатов на основе мяса, рыбы и овощей, инновационные подходы и показатели качества. На основе экспериментального метода и сравнительного анализа доказано, что эффективность технологии термической консервации (стерилизации) на 23,4% выше, чем у традиционных методов. Результаты исследования имеют практическое значение для развития отрасли полуфабрикатов в Узбекистане.

Ключевые слова: полуфабрикаты, технологический процесс, криогенная технология, контроль качества, пищевая промышленность, HACCP.

Annotation. This article comprehensively studies the technology of semi-finished products production. Within the framework of the study, the technological processes of semi-finished products based on meat, fish and vegetables, innovative approaches and quality indicators were analyzed. Based on the experimental method and comparative analysis, it was proven that the efficiency of thermal preservation (sterilization) technology is 23.4% higher than traditional methods. The results of the study are of practical importance for the development of the semi-finished products industry in Uzbekistan.

Keywords: semi-finished products, technological process, cryogenic technology, quality control, food industry, HACCP.

KIRISH.

ISSN 3030-3907


Zamonaviy oziq-ovqat sanoatining eng jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishdir. Dunyo miqyosida ushbu soha yillik 8,3% o‘sish sur’atini ko‘rsatmoqda[1]. O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatida ham so‘nggi yillarda yarim tayyor mahsulotlarga bo‘lgan talab keskin oshdi - 2020-2024 yillar oralig‘ida ichki bozorda ushbu mahsulotlar ulushi 14,2%dan 27,8%ga yetdi[2].

Yarim tayyor mahsulot - bu iste’molchi tomonidan minimal oshxona ishlovi bilan tayyor ovqatga aylantiriladigan, oldindan qayta ishlangan, dozalangan va qadoqlangan mahsulotdir[3]. Bunday mahsulotlar vaqtni tejash, porsiyalarning standartligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi[1].

Respublika miqyosida yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bir qator muammolar bilan bog‘liq: xom ashyo sifatining nobarqarorligi, texnologik uskunalar eskirganligi, innovatsion sovutish texnologiyalarining yetarli darajada qo‘llanilmasligi hamda standartlashtirish tizimining zaif ekanligi shular jumlasidandir.

Ushbu maqolaning maqsadi - yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishning texnologik zanjirini tahlil qilish, an’anaviy va zamonaviy texnologiyalarni qiyosiy baholash hamda sifat ko‘rsatkichlarini eksperimental yo‘l bilan aniqlashdan iborat[2].

Tadqiqot vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:



ADABIYOTLAR SHARHI.

[1] Global Semi-Finished Food Products Market Report 2024. Grand View Research, San Francisco, 2024. - 187 b.
[2] O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. Oziq-ovqat sanoati yilnomasi 2024. - Toshkent: O'zstat, 2024. - 312 b.
[3] Antipova L.V., Glotova I.A., Rogov I.A. Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi. - Moskva: KolosS, 2021. - 560 b.

ISSN 3030-3907

Yarim tayyor mahsulotlar texnologiyasi bo‘yicha xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng qamrovli tadqiqotlar mavjud. Schindler va Borgwardning tadqiqotlariga ko‘ra, muzlatilgan yarim tayyor mahsulotlarning sifat ko‘rsatkichlariga muzlatish tezligi hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi[4]: sekin muzlatishda (-18°C, 4 soat) go‘shtda suv yo‘qotish 3,8% ni tashkil etsa, tez muzlatishda (-35°C, 45 daqiqa) bu ko‘rsatkich 0,9% gacha tushgan[3].

Rybakov va Sidorenko tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda baliqqa asoslangan yarim tayyor mahsulotlarda vakuum qadoqlash va modifikatsiyalangan atmosfera texnologiyasining saqlash muddatini 2,3 barobarga oshirishi isbotlangan[5]. Ushbu natija O‘zbekiston sharoitida ayniqsa dolzarb, chunki mahalliy baliq mahsulotlari sanoati hali ham an’anaviy polietilen qadoqlashdan foydalanadi.

O‘zbekiston olimlari orasida Yusupova va Toshmatov go‘shtli so‘mlak va kotletlarni ishlab chiqarish texnologiyasini o‘rgangan[6]. Ular qo‘shma (mol+qo‘y) go‘shtidan tayyorlangan kotletlarda oqsil miqdori sof mol go‘sht kotletlariga nisbatan 4,1%ga yuqori ekanligini ko‘rsatgan[4].

Kim va Jangning meta-tahlili 47 ta tadqiqot natijalarini umumlashtirib, HACCP tizimi joriy etilgan korxonalarda mikrobial ifloslanish 67%ga kamayishini aniqlagan[7]. Bu natija xavfsizlik nazorat tizimlarini joriy etishning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi[5].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati Yevropa va Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga oid bo‘lib, Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston sharoitidagi yarim tayyor mahsulotlar texnologiyasi yetarli darajada o‘rganilmagan. Bu holat ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot 2023-2024 yillarda Toshkent viloyatidagi uchta yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonada amalga oshirildi. Tadqiqot ob’ekti sifatida uchta asosiy kategoriya tanlandi: go‘shtli (kotlet, bifshteks), baliqli (tovariq, baliq kotleti) va sabzavotli (lavash, somsa uchun tayyor tarkib) yarim tayyor mahsulotlar[6].

Asosiy ilmiy metod: Termal konservalash eksperimenti

[4] Schindler S., Borgwardt M. Frozen food technology: Quality aspects and innovation. Food Technology and Biotechnology. - 2022. - Vol. 60(3). - P. 234-245.

[5] Rybakov Yu.N., Sidorenko V.P. Vacuum packaging technologies for fish semi-products. Journal of Food Engineering. - 2023. - Vol. 295. - P. 110-121.

[6] Yusupova N.R., Toshmatov A.B. Mahalliy go'shtli yarim tayyor mahsulotlar texnologiyasini takomillashtirish. O'zbekiston kimyo jurnali. - 2021. - №4. - B. 78-86.

[7] Kim S., Jang Y. HACCP implementation and microbiological safety: A meta-analysis. Food Control. - 2022. - Vol. 134. - P. 108-116.

ISSN 3030-3907

Mazkur tadqiqotda yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini uzoq muddat saqlash va mikrobiologik xavfsizligini ta’minlash maqsadida termal konservalash (sterilizatsiya) metodi qo‘llanildi. Ushbu metod oziq-ovqat sanoatida keng tarqalgan bo‘lib, mahsulotni germetik yopilgan idishda yuqori harorat ta’sirida qayta ishlash orqali barcha mikroorganizmlar va ularning sporalarini yo‘q qilishga asoslanadi[7].

Tadqiqot obyekti sifatida go‘sht va sabzavot asosidagi yarim tayyor konservalangan mahsulot tanlandi. Eksperiment ikki xil texnologik rejim asosida olib borildi: nazorat varianti sifatida 100°C da 60 daqiqa davomida pasterizatsiya, tajriba varianti sifatida esa 115°C da 25 daqiqa davomida sterilizatsiya qo‘llanildi.

1-jadval.

Termal konservalash (sterilizatsiya) metodining asosiy bosqichi bo‘yicha tahliliy jadval

Ko‘rsatkich	Pasterizatsiya rejimi (nazorat)	Sterilizatsiya rejimi (tajriba)	Ilmiy izoh
Harorat	100°C	115°C	Harorat oshishi mikroorganizmlar, ayniqsa sporalarni yo‘q qilishda hal qiluvchi omil hisoblanadi
Vaqt davomiyligi	60 daqiqa	20–25 daqiqa	Yuqori haroratda ishlov berilganda vaqt qisqaradi, lekin samaradorlik oshadi
Mikroorganizmlar	Qisman saqlanadi	To‘liq yo‘q qilinadi	115°C da vegetativ va spora shaklidagi bakteriyalar nobud bo‘ladi
Saqlash muddati	7–10 kun	6–12 oy	Sterilizatsiya mahsulotni uzoq muddat buzilmasdan saqlash imkonini beradi
Bombaj (bankaning shishishi) xavfi	Yuqori	Juda past	Mikroorganizmlar mavjudligi bombajga olib keladi

ISSN 3030-3907

Oziqaviy qiymat	Yaxshi saqlanadi	Qisman kamayadi	Yuqori harorat ba’zi vitaminlarni parchalaydi
Organoleptik sifat	Yuqori (dastlab)	Barqaror (uzoq muddat)	Sterilizatsiya sifatni uzoq vaqt davomida saqlaydi
Texnologik samaradorlik	Pastroq	Yuqori	Kam vaqt + yuqori xavfsizlik = optimal ishlab chiqarish

Tajriba quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi. Dastlab xomashyo (go‘sht, sabzavot va ziravorlar) saralanib, yuvildi va maydalandi. So‘ng mahsulotga 70–80°C haroratda dastlabki issiqlik ishlovi berildi. Bu bosqich mahsulotdagi boshlang‘ich mikroorganizmlar miqdorini kamaytirish hamda strukturasini yaxshilashga xizmat qildi[8].

Keyingi bosqichda yarim tayyor mahsulot shisha yoki metall bankalarga joylanib, germetik yopildi. Shundan so‘ng asosiy texnologik bosqich — issiqlik bilan ishlov berish amalga oshirildi. Nazorat guruhida mahsulot 100°C da 60 daqiqa davomida qayta ishlangan bo‘lsa, tajriba guruhida 115°C da 25 daqiqa davomida sterilizatsiya qilindi. Issiqlik ishlovidan so‘ng bankalar tez sovitilib, 20–25°C haroratda saqlashga qo‘yildi.


Tadqiqot davomida mahsulot sifatini baholash uchun organoleptik, mikrobiologik va fizik-kimyoviy tahlil metodlaridan foydalanildi. Organoleptik baholash 5 ballik tizim asosida amalga oshirildi, mikrobiologik tahlilda bakteriyalar mavjudligi aniqlandi, fizik-kimyoviy tahlilda esa mahsulotning pH darajasi va namlik ko‘rsatkichlari o‘rganildi[8].

Texnologik sxema

Yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishning umumlashtirilgan texnologik sxemasi quyida keltirilgan (1-jadval):

[8] Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi va mikrobiologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2020.

ISSN 3030-3907



TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI.

Termal konservalsh metodidan foydalanib olingan natijalar

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, qo‘llanilgan sterilizatsiya rejimi yarim tayyor mahsulot sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. 100°C da olib borilgan pasterizatsiya jarayonida mikroorganizmlar to‘liq yo‘q qilinmaganligi sababli mahsulotning saqlash muddati 7–10 kun bilan cheklanganligi aniqlandi. Aksincha, 115°C da olib borilgan sterilizatsiya jarayonida barcha patogen mikroorganizmlar va sporalar yo‘q qilinib, mahsulotning saqlash muddati 6–12 oyga yetgani kuzatildi[9].

Organoleptik tahlillar natijasida pasterizatsiya qilingan mahsulotlarda ta’m va hid ko‘rsatkichlari dastlab yuqori bo‘lgan bo‘lsada, saqlash davomida tez yomonlashgani aniqlandi. Sterilizatsiya qilingan mahsulotlarda esa dastlab biroz issiqlik ta’siri sezilgan bo‘lsa-da, umumiy sifat ko‘rsatkichlari uzoq muddat davomida barqaror saqlangan[10].

Mikrobiologik tahlillar natijalari ham sterilizatsiya metodining ustunligini tasdiqladi. Xususan, 115°C da qayta ishlangan namunalarida mikroorganizmlar mavjudligi aniqlanmagan, 100°C da qayta ishlangan mahsulotlarda esa ayrim

